

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**



Pedagogika fakulteti

«Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi» kafedrası

**5110800-«Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi» ta’lim yo‘nalishi 4^v kurs
talabasi**

ALLABERGANOVA SEVARANING

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: «Maxsus maktablarda o‘quvchilariga narsaga qarab tasvir ishlash darslarni tashkil etish metodikasi»

Talaba: S.Allaberganova

Ilmiy rahbar: dots. J.Darmenov

Kafedra mudiri: dots. J.Darmenov

Kafedraning 2019 yil __-maydagi majlis qarori bilan himoyaga ruxsat etildi
(12-sonli protokol)

Nukus - 2019

**MAXSUS MAKTABLARDA O‘QUVCHILARIGA NARSAGA QARAB TASVIR
ISHLASH DARSLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI**

R E J A :

Kirish.....	3
I BOB. Tasviriy san’atning paydo bo‘lishi va rivojlanishi	7
II BOB. Narsaga qarab rasm chizishning nazariy asoslari va qonun qoidalari	20
III BOB. Narsaga qarab rasm chizish darslari va kerakli jihozlar.....	35
Xulosa.....	44
Foydalanilgan adabiyotlar.....	46
Rangli illyustratsiyalar.....	48

Kirish

Mamlakatimiz o'zining boy badiiy merosi bilan jahon san'ati va madaniyati rivojiga katta hissa qo'shgan qadimiy sivilizatsiya o'chog'i sifatida milliy badiiy an'analarning o'ziga xosligini saqlab kelayotgani dunyoning yetakchi san'at mutaxassislari tomonidan e'tirof etilgan.

O'zbek tasviriy va amaliy san'ati hamda dizayn yo'nalishlarini yanada rivojlantirish, xalqimizning ushbu nafis san'atlarga bo'lgan estetik ehtiyojini qondirish, keng yo'nalishda faoliyat olib borayotgan mutaxassislarning ijodiy imkoniyatlaridan unumli foydalanish, ularga shart-sharoit yaratish, badiiy salohiyatini oshirish, zamon talablariga mos badiiy ta'lim tizimini keng yo'lga qo'yish hamda rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha bir qancha qarorlar qabul qilindi [1].

Yoshlarni barkamol etib tarbiyalashda tasviriy san'at, xususan narsaga qarab rasm chizish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu o'z navbatida, kasb-hunar kollejlari o'qitilayotgan maxsus fanlarining chuqur va asosli bo'lishini taqozo etadi, pedagog, olim va rassomlarning zimmasiga yuksak ma'suliyat yuklaydi.

Keyingi vaqtda boshqa sohalarda bo'gani kabi, ta'lim tizimida ham ko'pgina amaliy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Respublika oliy o'quv yurtlari, kasb-hunar kollejlari, maxsus bilim yurtlari va ilmiy tadqiqot institutlarida yoshlarga milliy san'at namunalarini o'qitishning ilmiy asoslangan yangi shakli, metodlari ishlab chiqilmoqda hamda yoshlarni badiiy va estetik jihatdan tarbiyalab, voyaga etkazish borasida ko'plab ilmiy tadqiqotlar borasida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Respublika Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturlari» muhim tarixiy, hujjat bo'lib, unda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, bu tizimni dunyoning ilg'or, demokratik davlatlari darajasiga etkazish va yosh kadrlarni yuksak ma'naviy-axloqiy ruhda, chuqur bilim egasi qilib tarbiyalash maqsadi qo'yilgan.

Hozirgi vaqtda pedagogika universitetlari va institutlari badiiy grafika fakul'tetlarida universitetlari va institutlari badiiy grafika fakul'tetlarida narsaning o'ziga qarab chizishning nazariy va metodik asoslarini ishlab chiqishi va ilmiy jihatdan asoslangan yangi yo'li, shakli, mazmuni hamda metodlarini takomillashtirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Mazkur bitiruv ishi o'z mazmun va mohiyati bilan tasviriy san'at darslari bo'yicha qo'llanila sifatida ushbu fan to'garaklarida, darslarda o'qituvchilar, rassomlar va tasviriy san'atga qiziquvchi insonlar uchun ma'lumotnoma bo'lib xizmat qilishi va ishlash, o'rgatish jarayonida foydalanilsa bo'ladi. Bitiruv ishini o'rganish va yozish jarayonida bir qator ma'lumotlar to'plamlariga, zarur bo'lgan adabiyotlarga murojaat qilindi. Bir qator rassomlarning ijodlari ham ko'rib, o'rganib chiqildi.

Mavzuning dolzarbligi:

Bitiruv malakaviy ishi «Maxsus maktablarda o'quvchilariga narsaga qarab tasvir ishlash darslarni tashkil etish metodikasi» mavzusi bo'yicha bajarilgan. Tasviriy sanat fanining nazariy va metodik asoslarini ishlab chiqish va ilmiy jihatdan asoslangan yangi yo'li, shakli, mazmuni va metodlarini takomillashdan iborat.

Ishning maqsad va vazifalari:

1. Tasviriy sanat fanini davlat standartlari asosiy oliy o'quv yurtlarida mutaxassis-rassom pedagoglarni tayyorlovchi muassasalar ish faoliyatini ilmiy-uslubiy jihatdan tahlil etish.
2. Tasviriy sanat fanini davlat standartlari asosida o'qitishning istiqbol yo'llarini ishlash chiqish.
3. Mahalliy manbalardan foydalanishni keng yo'lga qo'yishi orqali talabalarning yuqori malakali, Vatanga sadoqatli, milliy hamda jahon xalqlarining sanatini mukammal biladigan, o'tmish madaniyatimizni sevadigan mutaxassislar bo'lib etishishlarini taminlash.

4. O`O`rta maxsus, kasb-hunar kollejlari uchun qalamtasvir fanini nazariy va amaliy jihatdan yuksak darajada biladigan, zamonaviy axborot texnologiyalari bilan qurollangan pedagog kadrlarni tayirlash.

Tadqiqot obekti va predmeti:

Tadqiqot obekti Nukus shaharidagi xalq talim bo`limiga qarashli №38-sonli umumtalim maktabi

Predmeti - maktablar, kasb-hunar kolleji tasviriy sanat, rangtasvir, qalamtasvir darslari

Tadqiqot uslubiyati va uslublari:

Test, ko`zatish, so`rovnoma, anketa va har hil metodikalardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan yangilik darajasi: Mutaxassislik ishi referativ, metodik va amaliy xarakterga ega. O`quvchilar bilan ishlashda O`zbekiston va Qoraqalpog`iston rassomlarining ish namunalaridan foydalanish yaxshi natija beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va tadbiri:

Bakalavr bitiruv malakaviy ishida jamlangan malumotlar nafaqat nazariy bilimlar, balki tajriba ishlarida ham kasb-hunar kollejlari, yuqori o`quv o`rinlarida, maktab va tasviriy sanat to`garaklarida olib borilaётgan darslarda o`quvchilar va o`qituvchilar, shuningdek, barcha tasviriy sanatga qiziquvchilar uchun o`quv-tajriba qo`llanma sifatida foydalansa bo`ladi.

Ish tuzilishi va tarkibi:

Bitiruv malakaviy ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabietlar va rangli illyustratsiyalardan tashkil topgan.

Bajarilgan ishning asosiy natijalari:

Bakalavr malakaviy ishimiz davomida ishimizning maqsadi va vazifalari, shuningdek uning amaliy zarurligini ko`rsatishga harakat qildik va qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya kasb-hunar kollejlari o`quvchilarga narsaga qarab tasvir ishlashni o`rgatish sanatni sevishga o`rgatishda bu ishimiz yaxshi natija berganligiga erishdik.

Xulosa va takliflarning qisqacha umumlashtirilgan ifodasi:

O`quvchilarning tasviriy sanatga, amaliy sanatga bo`lgan munoasabatini yaxshilash, mehr uyg`otish, amaliy sa`nat an`analarin rivojlantirishga o`rgatish, pedagogning asosiy vazifasi bo`lib qoladi.

I BOB. TASVIRIY SAN'ATNING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI

Tasvirlashga nisbatan bo'lgan qiziqish insonlarni qadimdan o'ziga jalb etib kelgan. Chunki, u ibtidoiy davr odamlariga o'zaro muloqat qilish, so'zlashish uchun zarur bo'lgan. Aksariyati ovchilik bilan shug'ullanib kelgan qadimgi odamlar hayvonlarning yurgan yo'llarini o'rganib, tik qoya va g'orlarda turli tasvirlar va ular orqali insoniyatning ilk davriga xos g'oyalar qoldirganlar. Vaqt o'tishi bilan ularning tasvirlash qobiliyatlari rivojlanishi natijasida keyinchalik har xil ov manzaralari aks ettirilib tasvirlar chizib o'sha davr xodisalarini ifodalay boshlaganlar.

Ibtidoiy davr odamlari qoya va toshlarga ko'mir bilan turli tasvirlarni tushirib, so'ngra ular ustidan o'tkir toshni yurguzib chiqqanlar. Keyin esa tasvirlarni pushti rang bilan bo'yaganlar. Shuni ta'kidlash lozimki, aksariyat tasvirlarni afsonaviy va turli marosimlar asosida ishlanangan (ritual) suratlar bo'lib, insonlarning o'sha davrdagi dunyo qarashlarining dastlabki ko'rinishlarini o'zida mujassamlashtirgan.

Keyinchalik shular asosida yozish paydo bo'la boshladi va rivojlana bordi. Avvaliga piktografik (tasviriy), so'ngra ideografik, ya'ni har bir belgi so'z ma'nosini anglatuvchi, undan keyin esa harflardan iborat yozuvlar paydo bo'la boshladi.

Odamlar tasvirlash borasidagi dastlabki malakalarini tabiatni bevosita kuzatish unga taqlid qilish, o'rganish yo'li orqali egallaganlar. Tasvirlashga o'rgatish paleolit davrida ham rivojlanmagan edi. Faqatgina keyinchalik neolit davriga kelib dehqonchilik va hunarmandchilikning boshlang'ich bosqichida insonning mehnat qilishi natijasidagina san'atga bo'lgan qiziqish uyg'ona bordi.

Rasm chizishga nisbatan ishtiyoq insonlarning kundalik hayotida ishlatiladigan buyumlarni bezash orqali rivojlandi. Eng avval, sopol idishlarga turli naqsh va tasvirlar tushirish paydo bo'la boshladi. Shu tarzda tasvirlar ishlashning dastlabki metodlari ham yuzaga keldi.

Endi hunarmand o'z shogirdining tasvirlarini qanday ishlashini kuzatib unga yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi. Chunki shogirdning ustoz ko'rsatmalariga rioya qilishi keyinchalik shu hunarning davom etishida muhim o'rin egallagan.

SHunday qilib, tasvir bajarishni o'rgatishning dastlabki usullari paydo bo'ldi. Lekin ushbu metodlar aniq ishlab chiqilgan, yo'l-yo'riqlar va tamoyillarga asoslanmagan edi. Tasviriy san'atga o'rgatish hamda maktablar tashkil etish ancha keyin boshlandi.

Tasviriy san'atga o'rgatish metodlari to'g'risida gap borganda avvalo Qadimgi Misrning yuksak rivojlangan madaniyatini misol qilib ko'rsatish mumkin. Tarix manbalarida yozilishicha Qadimgi Misr maktablarida turli fanlar qatori rasm chizish ham keng o'rgatilgan. Maktabni tugatgan o'spirin xona ichki ko'rinishini tasvirlay olishi, katta maydonning chizmasini chizib, uning o'lchamlarini qo'ya bilishi, suv inshootlari tavrini chiza bilishi shart edi.

Parassiy, Effes, Pamfil, Apeplek va boshqa maktab rassomlari o'zlarining nazariy asarlarida dunyodagi barcha narsa va buyumlar simmetrik, garmonik, hamda matematik jihatdan o'lchamlarga ega ekanligi haqida yozadilar. Jumladan, eramizdan avvalgi 432 yilda yashab ijod etgan haykaltarosh Poliklet odam tana bo'laklarining bir-biriga nisbatlari haqida yozib, uning isboti sifatida "Dorilfor" ma'budasini yaratgan. Keyinchalik rasm chizishni o'rganayotgan yoshlarga Poliklet yaratgan haykallardan birini o'ziga qarab tasvirlash majburiy ravishda ta'lim tizimiga kiritilganligini ko'ramiz.

Eramizdan oldingi IV asrga kelib qadimgi Yunonda Sikion, Efess, Fivan kabi o'sha davrdagi mashhur rassomlar maktablari vujudga keldi. Shulardan eng ko'zga ko'ringani Sikkion maktabi bo'lib, u nafaqat rasm chizish metodlarini takomillashtirishga balki, umuman tasviriy san'atning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi, hamda u yoshlarga tasviriy san'atni o'rgatish orqali go'zal tabiatni sevishga, uning qonuniyatlarini ilmiy jihatdan o'rgatishga qaratdi.

Tasvirlash jarayonida yoshlar tabiatni kuzatish bilan bir qatorda mavjud narsalarning tuzilish xususiyatlarini ham o'rganganlar. Shuning uchun Sikkion maktabining asoschilaridan biri Pamfil rasm chizishni fan sifatida barcha o'quv dargohlarida o'qitilishini yo'lga qo'ygan. U tasviriy san'atga ilmiy nuqtai nazardan qarashni birinchilardan bo'lib oldinga surdi. Tasviriy san'atning asosi

bo'lgan qalam tasvirga yuksak baho berarkan "Qalamtasvir ishlashda yuqori darajada aniqlik va ilmiy asos bo'lishi kerak" deb hisoblardi.

Ko'rib turibmizki, Pamfil tasviriy san'atni, xususan, qalamtasvir bo'yicha yoshlarga saboq berishning ilmiy asoslangan, nazariy va ilmiy metodikasini ishlab chiqqan.

Uning metodikasi asosida saboq olish yoshlardan nazariy bilimlarni egallashni va ko'plab amaliy mashg'ulotlar bajarishni talab etardi. Bu yerda to'liq o'qish davri 12 yil davom etgan. Qadimgi Yunon mo'yqalam ustalari o'z o'quvchilariga tabiatni ko'proq kuzatib idroklashni, uning beqiyos va takrorlanmas go'zalliklaridan ilhomlanib rasm chizishi va buyumlarning o'ziga qarab haqqoniy tasvirlashga birinchi bo'lib asos solganlar. Rasm chizishning barcha maktablarda haqqoniy tasvirini ifodalay bilishlari ular tarbiyasiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi.

Qadimgi Rim davri san'atkorlari Yunon rassomlari erishgan yutuqlarni davom ettirgan holda, tasviriy san'at sohasida ulkan muvaffaqiyatlarga erishdilar o'sha davrning boy kishilari san'at asari namunalari yig'ib, keng ommaga bu san'at asarlarini ko'rsatish, tanishtirish, targ'ibot qilish ko'proq amalga oshirilgan. Lekin, Yunonistonlik san'atkorlardan farqli o'laroq, Rim rassomlari tasviriy san'atni o'qitish tizimiga hech bir yangilik kiritmadilar. Rim imperiyasi rassom-o'qituvchi badiiy ijod muammolari bilan shug'ullanmas edilar. Asosan o'qitish tizimida yunon rassomlari yaratgan namunalarga esa rassom-ijodkor sifatida emas, hunarmand nuqtai nazaridan nusxa ko'chirish, ularni namoyish qilishni odat qilganlar xalos. Ayniqsa bu hol sezar rassom-pedagoglari ishlab chiqqan o'qitishning ilmiy asoslangan uslublaridan voz kechish ohir oqibatida tasviriy san'atning rivojlanishiga to'sqinlik qildi.

O'rta asrlarga kelib, realistik tasviriy san'at batamom inqirozga uchradi. Chunki bu davr rassomi na buyumni tekislikda haqqoniy tasvirlash qoidalarini va na tasvirlashni va na tasvirlashda Yunon rassomlari tomonidan ishlab chiqilgan asosiy prinsiplarni to'liq bilmas edi. Ruhoniylar buyuk Yunon rassom-pedagoglari tomonidan ishlab chiqilgan o'qitishning nazariy asoslarini yo'q qildilar. Uyg'onish

davrlarning ko'zga ko'ringan rassom – nazariyotchisi Giberti bu haqda shunday yozdi. "Imperator Konstantin va Silestr papasi davrida Xristianlik dini" tarkib topdi. Tasviriy san'at misli ko'rilmagan darajada ta'qib qilindi. Buyuk san'at asarlari –kartinalar, ma'budalar va insonning eng buyuk tuyg'usini shakllantiruvchi rassomlik san'atini o'qitish borasida to'plangan chizma, qonun hamda yozuvlar yo'q qilindi.

Antik nomi bilan yuritilgan ushbu davr san'atining vayron qilinishida turk istilochilari ham o'z "Hissalarini" qo'shdilar. Turklar tomonidan Yunonistonning bosib olinishi tasviriy san'atning batamom rivojlanishdan to'xtalishiga olib keldi. Tasviriy san'at, xususan rangtasvir san'ati bilan shug'ullangan Stendel o'rta asr davrini shunday izohlaydi : "Bosqinchilar qadimgi olimlarning qo'lyozmalarini yoqib kul qildilar, buyuk san'atkorlar tomonidan tasviriy san'at va haykaltaroshlik namunalari yo'q qilindi. IV, X, XI asrlarda tasviriy san'at uchun, Qora zulmat asrlari boshlandi ".

Bu vaqtga kelib tasviriy san'at darslarini umumiy ta'lim fani sifatida o'qitish olib tashlandi. Oqibatida o'qitishning aniq ishlab chiqilgan nazariy va metodik tizimi yo'q bo'ldi. Keyinchalik bu murakkab va mas'uliyatli vazifalar uyg'onish davri rassom-ijodkorlari tomonidan qaytadan tiklandi.

Uyg'onish davri tasviriy san'atning rivojlanishida yangi davrni ochdi. Rasm chizish nazariyasi sohasida rassomlar yangicha metodlarni ishlab chiqa boshladilar. Salkam ming yillik turg'unlikdan so'ng, ilmiy bilimlar va san'atni rivojlantirish muammolariga bo'lgan qiziqish yana qaror topdi.

Tasviriy san'at, xususan qalamtasvir bajarishning yangi metodlari bo'yicha CHellini, Rafael Alberti, Leonardo da Vinchi, Dyurer kabi ko'plab buyuk san'atkorlar shug'ullana boshladilar. Ular tasviriy san'at sohasida ilmiy izlanishlar tabiat qonunlaridan kelib chiqadi deb qaraydilar.

Rasm chizishga nisbatan ko'p bo'lmagan 4-6 o'quvchidan iborat guruhlar tashkil qilinib, ular rassomlar ustaxonasida tahsil olar edilar. Qalamda tasvirlash kompozitsiya bilan chambarchas bog'liq holda olib boriladi. Usta rassomlar

qanday qilib qalamchizgi bajarishi, keyin uni materialda ishlash hamda kartonda xomaki rasm tayyorlashgacha bo'lgan barcha bosqichlarni o'rgatar edilar .

Qalamtasvir, me'morchilik, haykaltaroshlik, rangtasvirning haqiqiy asosi sifatida tan olinar edi. SHuning uchun ham uyg'onish davri buyuk rassomlari rasm chizish metodlariga katta e'tibor berganlar.

Benvunuto CHellini "Rangtasvir qonuniyatlari" nomli asarida qalamtasvir bajarish metodlariga katta e'tibor berib, uning zaminiada narsaning o'ziga qarab tasvirlash mashqlari yotadi deb yozgan edi. Uning ta'kidlashicha yuksak mahoratga ega bo'lish uchun shogird har kuni bir necha soat rasm chizishi kerak.

Florensiyalik me'mor—Leon Vatista Alberti ham qalamtasvir va uni o'qitish metodlariga katta e'tibor beradi. Xususan uning "Rangtasvir to'g'risida uch kitob" nomli mashhur asarlar to'plamida yozishicha, ranglar bilan ishlashni o'rganishdan avval qalamtasvirning asosiy qonun-qoidalarini o'rgatish zarurligini aytadi. Uning ushbu asari 500 yil avval yozilganiga qaramasdan, qonuniyatlari, xulosalari, hozirgi zamon akademik rasm chizish metodlariga to'la-to'kis mos keladi. Alberti rasm chizishga jiddiy ilmiy fan sifatida qarar edi.

Rasm chizish metodlarini takomillashtirishga buyuk Leonardo da Vinchi ham o'z hissasini qo'shdi. Uning "Rangtasvir haqidagi kitob"ida olamning tuzilishi, tabiatdagi o'zgarishlar, haykaltaroshlik, chiziqli va fazo perespektivasi haqida ko'plab ilmiy asoslangan fikrlarni ko'rish mumkin.

Alberti kabi Leonardo da Vinchi ham tasviriy san'atning asosi qalamtasvir deb hisoblab, narsaning o'ziga qarab tasvirlash o'qitishning zarur qismi ekanligini ta'kidlar edi. Leonardo da Vinchi inson a'zolari tuzulishini anatomik kabi yuksak darjada o'qib o'rgandi. Insonning har bir mushak to'qimalarini o'rganib, ularning tasvirlarini chizib qoldirgan. Uyg'onish davrining usta rassomlari orasida qalamtasvir bajarish metodlarini takomillashtirish muammaolari bilan shug'ullanganlaridan yana bir nemis rassomi Alberxt Dyurer va Shonlardir. Ular tasvirlashda perespektivaning asosiy qonun-qoidalari ustida ko'plab tajriba sinovlar o'tkazdi. Rassom olimlarning diqqatiga sazovar ishlardan yana biri inson

qomatining nisbatlarini ishlab chiqish va uni kesik shakllar orqali aks ettirish metodini ishlab chiqqanligidir.

Uygʻonish davri rassomlari jahon tasviriy sanʼatining rivojlanishiga ulkan hissa qoʻshdilar. Ularning tasviriy sanʼat boʻyicha ishlab chiqqan perespektiva qonunlari keyinchalik ijodkor rassomlarga misli koʻrilmagan darajada yordam beradi. Agar oʻrta asrlarda tasvirlash metodikasi buyumlar shaklu shamoyilining oʻxshashligini eʼtiborga olgan holda bajarilgan boʻlsa, endi bu davr qalamtasvir ilmiy asoslangan anatomiya qonunlarini chuqur oʻrganish, perespektiva qoidalariga toʻla-toʻkis rioya qilish, yorugʻlikning buyumlarga tushush qonuniyatlarini hisobga olib aks ettirilgan tasvirlash metodlari rivojlangan davr boʻldi. Yuqorida taʼkidlanganidek uygʻonish davri rassomlari rasm chizish metodikasiga katta hissa qoʻshdilar va qalamtasvirning fan sifatida rivojlanishiga asos soldilar. Lekin, ular oʻqitishning didaktik negizlariga kam eʼtibor berdilar. Bu muhim vazifani XVI asrning oxiriga kelib turli davlatlarda tashkil etilgan badiiy akademiyalar davom ettirib, hal eta boshladilar.

XVII asr tasviriy sanʼatni oʻqitish metodikasi qalamtasvirning fan sifatida toʻla-toʻkis uning akademik tarzda davom etishi uchun zamin yaratdi. Akademik qalamtasvirni pedagogik amaliyotda oʻqitishning tizimi dastlab Florensiyadagi "Qalamtasvir akademiyasida" ishlab chiqildi.

Aka-uka Karrachilar tomonidan tashkil etilgan Boloniyadagi yosh musavvirlarga quyidagi usulda saboq berilgan. Dastlab qalamtasvir chizish metodlari, qonun-qoidalari bilan tanishgach, soʻngra gips naʼmunalarini tasvirlaganlar, shundan keyin inson qiyofasini oʻziga qarab rasmini chizganlar. Bu mashgʻulotlarda u insonning anatomik tuzulishlarini ham chuqur oʻrganish imkoniyatiga ega boʻlganlar. Boloniya akademiyasi oʻz davrida yoshlarga badiiy taʼlim berish borasida eng maqbul namunali oliy oʻquv dargohi hisoblanganligi tufayli uning metodikasini davom ettirib, 1648 yilda Parij qalamtasvir va haykaltaroshlik boʻyicha qirollik akademiyasi, 1660 yili Rimda badiiy akademiya, 1696 yili Berlinda, 1753 yili Madridda San-Fernando akademiyasi, 1757 yili Peterburg akademiyasi, 1768 yili London badiiy akademiyasi tashkil etilgan,

yurtimiz mustaqilligidan keyin 1998 yili O'zbekistonda xam badiiy akademiya tashkil etildi. Bu badiiy akademiyalar tashkil topishi tasviriy san'atning rivojida nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

SHuni ta'kidlash lozimki, davlat tomonidan tashkil etilgan akademiyalar bilan bir qatorda xususiy san'at maktablari mavjud edi. O'quv adabiyotlari bilan to'liq ta'minlangan maktablardan biri taniqli Floriya rassomi Rubensning xususiy maktabidir. Rubens o'z zamonasining yirik namoyondasi edi. U buyuk rangtasvir, qalamtasvir ustasi bo'libgina qolmay, balki san'at asarlarini yuksak qadrlay biladigan olim-tadqiqotchi, davlat va jamoat arbobi, shogirdlarning mehribon ustози bo'lgan. U yuqori darajada ma'lumotli bo'lib, ingliz, ispan, fransuz, italyan, nemis tillarida yozish va so'zlashni mukammal bilgan.

Antik davr san'atini chuqur o'rganib o'z shogirdlariga o'sha davrda yaratilgan haykallarni to'g'ridan - to'g'ri ko'chirish emas, balki ushbu namunalarni aks ettirish orqali inson a'zolarini tasvirlashda ilmiy tomondan yondoshishga da'vat etgan. Qalamtasvir metodlarini rivojlantirishda aka-uka Aleksandr va Fernand Dyurelar ham katta hissa qo'shdilar. 1835 yil ular Parijda rassom hunarmandlar uchun bepul maktab ochib, shogirdlarga tasviriy san'at bo'yicha saboq berdilar. Diqqatga sazovar joyi shundaki, ushbu maktabda o'qitishning metodik bosqichlari o'ziga xosdir. Bu yerda boshqa san'at dargohlardan farqli o'laroq eng murakkab bo'lgan inson qomatini tasvirlashni mukammal o'rganib bo'lganidan keyin gips naqsh namunalarini chizishga o'tilgan.

Aka-uka Dyurelarning ta'kidlashicha o'simliklardan tashkil etilgan naqsh bo'laklari tabiatning barcha eng murakkab shakllarini o'zida mujassamlashtirgan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab xususiy akademiyalar yanada ko'payib bordi. Ba'zi akademiyalar ko'p yillar davomida tajriba va sinovlardan o'tib, ta'lim berishda amaliy jihatdan to'plangan tajribalarni inkor etish asosida qurilgan edi. O'qituvchi-professor o'zining xususiy maktabini targ'ibot etish maqsadida o'tmishda tashkil etilgan va mavjud akademiyalarni "Eskirib, bir erda qotib qolgan" deb hisoblab ko'p hollarda o'zlari yoshlarga hech qanday tizimga ega bo'lmagan usulda ta'lim beradilar.

Xususiy akademiyalarga 40-50 ga yaqin o'quvchilar tashkil etilib, ularni na kurslarga va na guruhlariga bo'linmagan holda mashg'ulotlar olib borilgan. Mashg'ulotlar quyidagicha tarzda edi: Katta xonaning bir necha joyda natura qo'yilgan bo'lib, o'quvchilar hech bir yo'nalishga ega bo'lmagan xolda tahsil olar edilar. SHuni ta'kidlash kerakki, xususiy tarzda tashkil etilgan akademiya orasida ham aniq yo'nalishlarga ega bo'lgan o'quv dargohlar mavjud bo'lgan : Jumladan Venger rassomi Shimon Xolloshi (1857-1918) va yugoslov pedagog-rassomi Anton Ashbelar (1862-1905) maktabi diqqatga sazovordir.

Yaxshi yo'lga qo'yilgan metodika va o'ziga xos ravishda tuzilgan dastur asosida o'qitish tizimi ularni butun jahonga mashhur qilgan bo'lib, ushbu maktabdan o'nlab iste'dodli rassomlar etishib chiqqanlar.

XX asrning oxiriga kelib akademik tarzda o'qitish tizimi o'z yo'nalishi jihatdan yangi zamon talablariga javob bera olmay qoldi. Qisqa vaqt ichida turli badiiy oqimlar paydo bo'la boshladi. Neorepressionizm, kubizm, ekspressionizm, daizm, syurrealizm va turli tarmoqli oqimlarning o'zaro ziddiyatlari o'qitish metodikasiga ayniqsa, qalamtasvirning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

San'atshunoslik akademik tarzda o'qitish tizimiga qarshi bunday shaklda ta'lim-tarbiya berish yoshlarning ijodiy rivojlanishiga to'sqinlik qiladi deb hisoblar edilar. XX asrning boshlariga kelib G'arbiy Evropa va Amerika Davlatlarining badiiy maktablari to'la inqirozga uchradi, qalamtasvir ishlashda uslublar ham keskin o'zgardi. Tasvirlanajak namuna qiyofasini noizchil o'rganish, uning tuzilish qonun-qoidalarini engil-elpi egallash oqibatida uzoq muddatli akademik qalamtasvirilar ishlash o'rni yuksak qoramalar bilan almashdi. Ba'zi rassom-pedagoglar esa o'z o'quvchilariga buyumlar shaklini xohlaganicha buzib tasvirlashga ruxsat etdilar.

Bu hol sobiq sovet tuzumining ilk davrida o'qitish tizimiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Akademiyalarda antik davrga mansub gips haykal namunalari yo'q qilindi, iqtidorli rassom tomonidan yaratilgan akademik ishlar barbod etildi. Natijada akademik rasm chizish mustaqil o'quv fani sifatida o'zining qadrini yo'qotdi. 1939 yildan boshlab sobiq ittifoqning ko'pgina yirik shaharlarining oliy

ta'lim tizimida tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash bo'limlari tashkil etildi. 1942 yiladan boshlab esa ushbu bo'limlar badiiy grafika fakultetlariga aylandilar. Ushbu o'quv dargohlarda tasviriy san'at mashg'ulotlari xususan - akademik qalamtasvir narsa va buyumlarni haqqoniy qilib o'xshatib tasvirlash yo'lga qo'yilgani bilan e'tiborlidir. Buning natijasida yoshlarni turli xil formali yo'nalishlarga kirib qolmaslariga imkoniyat paydo bo'ldi. 1947 yilda sobiq ittifoq badiiy akademiyasi tashkil etildi. Uning o'sha yili qabul qilingan qarorlariga esa 1947-48 o'quv yilidan boshlab barcha badiiy-oliy dargohlari birinchi kurslarida gipsda ishlangan antik davr bosh namunalari va odam portreti, ikkinchi kurslarda inson qomati va gips tors namunalari, uchinchi kurslarda inson qomatining turli murakkab holatlarini tasvirlash, to'rtinchi va beshinchi kurslarda esa libossiz gavdaning qalamtasvirni uzoq muddatda akademik tasvirlash vazifalari belgilanadi.

Shundan so'ng sobiq ittifoq respublikalarning Tallin, Kiev, Tbilisi, shaharlarida badiiy institut tashkil etildi. 1955 yili Nizomiy nomidagi TDPI qoshida ham Badiiy-grafika fakulteti tashkil etilib, turli yo'llarda iqtidorli rassom-pedagoglar O'zbekiston xalq rassomlari M.Nabiev, N.Qo'ziboev, akademiklar R.CHoriev, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arboblari A.Boymatov, M.Saidov, dotsentlar K.Eminov, M. Ten, A.Inog'omov, G.Abduraxmanov, kabi mutaxassislar faoliyat ko'rsatadi.

I. Talaba yoshlar ta'lim jarayonida O'zbekiston xududidagi tasviriy san'atning shakllanishi taraqqiyot tarixiy bosqichlari bilan uzviy bog'liqligi bosqichma - bosqich rivojlanib, mukammallashib kelayotgan metodika fanining, zamonaviy o'qituvchi kadrlar tayyorlashda tarbiyaviy mohiyati yuksak ekanligi haqida bilishlari uchun avvalo o'zimizda rivojlangan tasviriy san'at turlari va tarixi haqida chuqur bilimga ega bo'lishi talab etiladi.

Qadimdan Markaziy Osiyo, Misr, Xitoy, Yaponiya, Hindiston kabi mamlakatlarda tasviriy san'atning ancha qiyin grafik chizmalari paydo bo'lgan. Misr qadimdan tasviriy san'at maktablariga ega bo'lgan davlatlardan biridir. Tasviriy san'at borasida nazariy bilimlarni ilmiy pedagogik jihatdan talqin etish

masalasiga san'at tushunchasining o'zini tahlil qilish orqali yondoshish maqsadga muvofiqdir.

Odamlar tomonidan biron-bir ish, narsa, buyum va hakoza larning mohirlik bilan bajarilishi va maromiga yetkazish inson mehnatining san'atkorona bajarilganini bildiradi. Demak, pedagoglarning ham o'z mehnatini puxta, chiroyli, kam-ko'stsiz bajarishi san'atkorlik namunasi bo'lib hisoblanadi.

Ta'lim-tarbiya berishda tasviriy san'at tushunchasining o'zi qanday xarakterga ega ekanligi alohida ilmiy pedagogik tahlilni taqazo etadi. Ana shuning uchun ham bu boradagi mavjud nazariy tushunchalar, ularning pedagogika fanidagi o'rni haqida to'xtalishimiz lozim.

Tasviriy san'at – eng qadimiy va keng tarqalgan san'at turlaridan biridir. U keng ma'noga ega. O'z o'rnida haykaltaroshlik, rangtasvir, amaliy san'at va grafika kabi turlarga bo'linadi. Turlari ham o'z o'rnida yana bir qancha janrlarga bo'linib ketadi.

Tasviriy san'at tur va janrlarini nazariy jihatdan o'rganish, shuningdek talaba, o'quvchilarga mashg'ulot yoki suhbat davomida ko'rgazmali qurollar orqali o'rgatishning uslubiy asoslari, yo'l-yo'riqlari metodik jihatdan alohida o'ziga xos alifbosiga ega. Tasviriy san'at voqealikni, borliqni shakllar, chiziqlar, ranglar, bo'yoqlar surtmasi orqali ma'lum bir tekislikda, yuzada, makonda va hakoza lar ijodkor (haykaltarosh va rassom) tomonidan tasvirlanadigan san'atdir. SHuningdek, tasviriy san'at mahobatli va dastgohli san'at ko'rinishlarga ega. Mahobatli deyilganda - hajm jihatdan bir necha barobar katta me'morchilik, me'morlik-yodgorlik san'atiga, shuningdek biron-bir badiiy muhitga mo'ljallangan tasviriy san'at asarlari tushuniladi. Dastgoh – bu asosan erkin ijodiy faoliyat tufayli yaratilgan asarlar tushuniladi, ularni xohlagan joyga qo'yish, namoyish qilish mumkin bo'ladi.

Ajdodlarimiz tarixi bizdan qancha uzoq bo'lmasin va ularning diniy e'tiqodlari o'ziga xos bo'lganligidan qat'iy nazar biz bilan ularni bog'lab turadigan nozik ko'priklar bor. U ham bo'lsa, ular yaratgan ajoyib san'at namunalari, ularning ma'naviy qadriyatlarini, umumiy dunyoqarashlarida insoniyat tafakkurining

uzviy rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazib qolgan tushunchalari va bilimlaridir. Shuning uchun ham zamonaviy rassom o'qituvchlarni har tomonlama tarbiyalashda, shakllantirishimizda bunday o'tmish meros namunalariga murojat qilib turishimiz, ularni ta'lim jarayonida nafaqat o'tmish namunasi sifatida, balki uslubiy mukammal vositalar sifatida foydalanishimiz mumkin.

Eng qadimgi tasviriy san'atdan farqli o'laroq Markaziy Osiyo san'at maktabini Yunon san'ati bilan uyg'unlashgan namunalaridan ko'rish mumkin. Bu san'at maktabini Iskandar izi bo'ylab shakllangan tasviriy san'at maktabi deb atashga asoslar bor. Ma'lumki, miloddan avvalgi 329-327 yillarda Iskandar qo'shinlari Markaziy Osiyo hududlarini makkorlik va hiyla bilan bosib olishgan. Yunon tili, madaniyati, san'ati dinini targ'ib qilishgan. Natijada yunonlashtirish vujudga kelgan. Mahalliy xalqlar tasviriy va amaliy san'ati bilan yunonilar san'ati o'rtasida uyg'unlashuv boshlangan, natijada yunon san'atiga xos haykaltaroshlik, devoriy rasmlar, amaliy san'at namunalari paydo bo'lgan.

Tasviriy san'at tarixida xalqlarning aloqalarini bog'lab turgan Buyuk ipak yo'lining ham ta'siri katta bo'lgan. Xalqlar o'rtasidagi savdo-sotiq aloqalari, ulardagi har xil asbob-uskuna, qimmatbaho san'at namunalari orqali o'tishi natijasida tasviriy san'atning uyg'unlashuviga olib kelishi tabiiy bir hol edi. Buyuk ipak yo'li orqali xalqlar o'rtasidagi aloqa tasviriy san'atni nafaqat uyg'unlashuviga ta'siri bo'lib qolmasdan, bir-biridan andoza olib, boyib borishiga sababchi bo'lganini Kushonlar davrini o'rganish jarayonida guvoh bo'lamiz.

Tasviriy san'atning ilg'or namunalari qadimgi madaniy taraqqiy etgan o'lkalar Sug'diyona (Zarafshon va Qashqadaryo viloyatlari), Baktriya (Surxondaryo, Janubiy-G'arbiy Tojikiston, SHimoliy Afg'oniston), Parfiya (Turkmanistonning Ashxobod viloyati, SHimoliy-g'arbiy Eron), Choch (sirdaryoning o'rta havzosi, hozirgi Toshkent viloyati, Janubiy Qozog'iston) shuningdek Qadimgi Xorazm, Qadimgi Farg'ona xududlarida mavjud bo'lib kelganini ko'ramiz. Qisqasi tasviriy san'at borasida bebaho asarlarini har bir san'at o'qituvchisi bilishi lozim. Chunki O'zbekiston tasviriy san'at tarixi, uning ilg'or o'ziga xos an'analarini o'qituvchilar tayyorlashdagi tasviriy san'at ta'limini

mazmunini boyitibgina qolmasdan, ilmiy pedagogik jihatdan to'g'ri talqin qilishning mohiyatini ochib beradi.

Qadimgi haykaltaroshlik san'ati – tasviriy san'at tarixini o'rganishda alohida ilmiy pedagogik qimmatga ega.

O'zbekiston hududiga mansub qadimgi rangtasvir san'ati o'ziga xos bebaho namunalarga ega. Afrosiyob rangtasvir san'ati, Beshiktepa rangtasvir san'ati, Varaxsha san'ati, kabi o'tmishdagi mashhur rassomlarning ish tajribasi, bilimi shuningdek pedagogik mahoratiga e'tibor qaratmoq lozim va bugungi musavvir o'qituvchilarning shakllanishida san'atimiz merosidan to'g'ri, unumli va ilmiy asosida foydalanishimiz joizdir.

Biz ajdodlarimizning madaniyati va san'ati sirlarini qanchalik o'rganar ekanmiz, ular qoldirilgan izlar aniqroq ko'zga tashalanaveradi, qadimgi manzilgohlar, ular yaratgan madaniy-ma'naviy meroslar haqida batafsil hikoya qilaveradi. Biz ularni yaqindan o'rganib dunyoqarshimizni boyitishimiz va tarixiy dalillar asosida tasviriy san'at metodikasini yanada rivojlantirishga hissamizni qo'shishimiz kerak.

Miniatyura san'atiga kelsak, bu san'at avvalo qog'oz bilan bog'liq. Arab olimi Ibn Nadimning yozishicha, 87 hijriy (melodiy 706) yilda dastlab Samarqandga kelganlarida qog'ozsozlik korxonalarini ko'rib hayratga tushgan, deb yozib qoldirgan.

Bunday ustaxonalar Xivada, Qo'qonda, Buxoroda, Samarqanda, Toshkentda va boshqa joylarda mavjud edi. Xiva xoni Said Muhammad o'z saroyida bir qancha hattotlarni, mohir naqqoshlar va rassomlarni to'plagan ma'lum bo'lib, u kitobga ixlos qo'ygan kishi edi. Uning katta kutubxonasi bo'lib, shu kutubxonada qo'lyozmalar ko'chirilgan va bezatilar edi. Bundan tashqari Buxoro xoni Amir Olimxon saroyida ham mashhur kutubxona bo'lib, unda juda ko'p miqdorda kitoblar to'plangan va hattotlar shug'ullanganlar.

Xiva maktabiga mansub Xudoybergan-Devon malakali usta soatsoz bo'lib u bir qancha kitoblarni bezaganligi ma'lum. Buxoroda tug'ilib o'sgan shoir Ahmad Donish (1827-29-1897) shoirlilik bilan birga hattotlik ham qilgan. Bir qancha

qo‘lyozmalarni qayta ko‘chirib ularga miniatyuralar ishlagan. Buxoro muzeyida saqlanayotgan “Lazzati va Niso” kitobiga ishlangan 27 ta miniatyurasi juda ham xarakterlidir. Bu rassom ijodiy faoliyati yaxshi o‘rganilmagan, keng kitobxonlar bu rassom bilan yaqindan tanish emas. Uni shoir deb bilishadi.

Tasviriy san‘atning tarbiyaviy vazifalarini yuksak mutaxassislik tayyorgarligiga ega bo‘lgan o‘qituvchi musavvirlar tomonidan amalga oshirilishi, tarbiyaning yanada mazmunli bo‘lishiga turtki bo‘ladi. Agar tasviriy san‘at orqali tarbiya olib borilmas ekan, bunday ta’lim sinadi va o‘z ta’sirini yo‘qotadi.

Bunday ta’lim-tarbiyaning mohiyatini ulug‘ mutaxassislar, olimlar, shoiru yozuvchilar, musavvir-pedogoglardan K.Bekzod, Lutfiy, A. Jomiy, Z. Bobur, D. Samarqandiy, Muzahhib M. Xondamir, K. Bekzod, Attor, A. Yassaviy, Abu Nasr bin Arron, Ulug‘bek, X. Abdulhay, Pir Said Ahmad va boshqalar juda yaxshi tushinishgan. Pir Said Ahmad va X. Abdulxay kabi rassomlar Samarqanda yashab ijod etgan va ularni Osiyo miniatyurachilari qatorida eslashimiz mumkin.

II BOB. NARSAGA QARAB RASM CHIZISHNING NAZARIY ASOSLARI VA QONUN QOIDALARI

Tasviriy san`at fanining nazariy va metodik asoslari ishlab chiqish va ilmiy jihatdan asoslangan yangi yo`li, shakli, mazmuni va metodlarini takomillashtirish masalalarini quyidagilardan iborat:

1. Tasviriy san`at fanini davlat standartlari asosida oliy o`quv yurtlarida mutaxassis-rassom pedagoglarni tayyorlovchi muassasalar ish faoliyatini ilmiy-uslubiy jihatdan tahlil etish.

2. Tasviriy san`at fanini davlat standartlari asosida o`qitishning istiqbol yo`llarini ishlab chiqish.

3. Mahalliy manbalardan foydalanishni keng yo`lgan qo`yishi orqali talabalarning yuqori malakali, Vatanga sadoqatli, milliy hamda jahon xalqlarining san`atini mukammal biladigan, o`tmish madaniyatimizni sevadigan mutaxassislar bo`lib etishishlarini ta`minlash.

4. O`rta maxsus, kasb-hunar kollejlari uchun qalamtasvir fanini nazariy va amaliy jihatdan yuksak darajada biladigan, zamonaviy axborot texnologiyalari bilan qurollangan pedagog kadrlarni tayyorlash.

Rassom tasviriy san`at turining qaysi birida ijod qilishidan qat`iy nazar, qalamtasvirga asoslanadi. Qalamtasvir-barcha tasviriy san`at turlarining asosi hisoblanadi. U o`zining kuzatishlari, katta asar kompozitsiyalari ustidagi izlanishlarini avval qalamda dastlabki chizgilar bilan ifodalaydi. San`at asarini yaratishda ushbu qoramalar rassomga yordamchi manba bo`lib xizmat qiladi.

Rassom u yoki bu kartinasini yaratishni qalamda chizishdan boshlaydi. Keyin asarga ranglar beriladi va u tomoshabinga estetik huzur baxsh etadi. Boshqacha qilib aytganda, qalamtasvirsiz hech bir rassom o`z asarini yetuk holga keltira olmaydi. Qalamtasvir mahsulotlari ko`rib-kuzatib to`g`ri tasvirlash, borliqni idrok etish, qo`l, ong va sezgi organlarini rivojlantirishda nafakat bo`lajak rassomga, balki turli kasb sohalaridagi kishilarga ham zarurdir.

Borliqdagi narsa va shakllarni realistik tasvirlash talabaga amaliy bilim va ko`nikma beribgina qolmay, balki uning estetik didini o`stirish, dunyoqarashini kengaytirish uchun juda muhimdir. Realistik tasvir san`ati yosh rassomlarning borliqni haqqoniy obrazlarda ifoda etish mahoratini rivojlantirishda ham katta ahamiyatga ega.

Rasm chizish asoslarini o`rganish narsaning o`ziga qarab, metodik izchillikda tasvirlash printsiptiga asoslanadi. Tabiatga muhabbat va o`ta kuzatuvchanlik, buyumlarni to`g`ri tasvirlash kabi fazilatlar tasviriy san`at bilan shug`ullanadigan har bir talabaga xos bo`lmog`i kerak.

Bo`lajak rassomlarni buyuk rassomlar, tasviriy san`at sohasida ko`plab nazariy, amaliy bilimlarni meros qilib qoldirgan shaxslar hayoti va ijodiy faoliyati bilan tanishtirish, ularning asarlarini chuqur o`rgatish hamda ulardan nusxalar olishga jalb etish katta ahamiyatga ega.

Bo`lajak tasviriy san`at o`qituvchilari tayyorlashda qalamtasvir mashg`ulotlarining amaliy jihatlarini o`rgatish bilan bir qatorda, uning nazariy asoslari ham puxta o`rgatilishi katta ahamiyatga ega. Shuning uchun qalamtasvir mashg`ulotlari qator aniq predmetlar asosida olib boriladi. Ulardan asosiysi-perspektiva va plastik anatomiyadir. Bularsiz talaba eng oddiy vazifani ham to`g`ri bajarish mushkul. Perspektiva qonunlarini bilmay turib, buyumlarning fazoviy holatini aniq topa olmaydi yoki odam plastik anatomiyasi borasida aniq bilimga ega bo`lmasdan, inson qomati va portretini chiza olmaydi. Yorug` va soya qonunlarini yaxshi tushunib etmagan talaba tasvirlanayotgan buyum tusi, xajmi va moddiy xususiyatlarini aniq tasvirlashning uddasidan chiqqa olmaydi.

Buyumlarni tasvirlash san`ati, boshqa aniq fanlar kabi, fikran chizilayotgan narsani chuqur tahlil etib, uni so`z orqali emas, turli tasvirlash vositalari bilan, obrazli qilib yaratishni taqozo etadi.

Tasviriy san`at ustasi va rus pedagoglaridan biri P.P.Chistyakov aytganidek, tasvirlash-fikrlash demakdir. U shogirdlariga doimo bunday deb

ta`kidlagan: «Hech qachon fikrlamay rasm chizmag, har doim oldingizga maqsad qo`ygan holda gapirib tasvirlang, bu yerdan-bu yergacha».

So`z –tasvirlanayotgan buyumni tahlil qilib, to`g`ri chizishda eng muhim jihatlardan biridir. U chizuvchida fikr yuritib tasvirlash odatini shakllantiradi.

Ma`lumki, tasviriy san`at atrof-muhitni keng va atroflicha o`rganish natijasida, aniq fanlar kabi, tabiatni ilmiy jihatdan tahlil etish orqali o`rganiladi. Shuning uchun bo`lajak tasviriy san`at o`qituvchisi tabiatni qanchalik ko`p sevsa va kuzatib o`rgansa, u tasvirlash sohadasida shunchalik yuksak natijalarga erishishi mumkin.

Uyg`onish davrining buyuk rassomlari tabiatni ilmiy tahlil qilib, uni asosli o`rganganlar va o`z asarlarida ishonarli tasvirlaganlar. Jumladan, Leonardo da Vinchi, Al`brext Dyurerlar inson tanasi a`zolarining har bir bo`lagini aniq o`lchamlarda o`rganib, o`z tasvirlashda amalga qo`llanganlar.

Ular inson qomati yoki portretini tasvirlashda oldin uning tizimini xususiyatlarini, xuddi anatom tadqiqotchidek, asosli o`rganganlar va natijada jahonda mashhur san`at asarlarini yaratishiga muvaffaq bo`lganlar.

O`quv qalamtasvirining ilmiy asoslariga rioya qilish deganda, talabani u yoki bu o`quv mashq jarayonida tasvirlashning qonun va qoidalarini aniq bajarishni nazarda tutiladi. Masalan, boshlang`ich kurslarda gipsli geometrik shakllarni talabadan chiziqli konstruktiv tuzilish xamda perspektiva qonun-qoidalariga amal qilish talab etiladi. Inson qomatini tasirlashdan oldin esa (yuqori kurslarda), talabalar insonning anatomik tuzilishini o`rganishlari shart. Yuqori kurslarga borib, talabalarda o`ziga xos, individual tasvirlash texnik malaka rivojlana boshlaydi.

Ular xar bir vazifani individual amalga oshirish bilan birga qalamtasvirdagi mavjud plastik anatomiya qonunlariga rioya qilishlari lozim (suyak va mushaklarning joylashishi, birlashishi, ularning nisbat va tuzilishlari, yorug` soya va boshqalar).

Uzoq o'tmishda qadimgi yunon musavvirlari inson qomatini ilmiy tahlil etib, shunday xulosaga kelganlarki, inson qomati-tabiatning eng murakkab, oliy va go'zal mahsuli.

Bir qarashdan bir-biriga qarama-qarshi bo'lib tuyilgan tasviriy san'at va ilm-fan amaliyotda biri ikkinchisini to'ldirib, shakllantiradi. Ong va sezgi, idrok va hissiyotlar doimo uzviy aloqadadir. Demak, talaba o'quv vazifasini to'g'ri bajarish uchun, birinchi navbatda, tasviriy san'at qonun-qoidalariga amal qilishi kerak. Ular orqali u o'quv akademik vazifalarni bajarish jarayonida tasvirdagi birinchi darajali buyumlarni bo'rttirib ko'rsatib, shaklning xarakterli xususiyatlarini aniq tasvirlashi, ikkinchi darajali buyumlarni esa, umumiy, ko'zga uncha tashlanmaydigan qilib bajarishi lozim.

Tasviriy san'at, xususan, o'quv qalamtasviri qonun-qoidalari tabiat qonunlaridan kelib chiqadi. Tabiat qonunlari tasviriy san'atga ta'sir etib, uning rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Tasvirlash qonunlari talabalarning qalamtasvir bilimlarini oshiradi va malakasini shakllantiradi, ijodiy qobiliyatini o'stiradi hamda uni bo'lajak pedagogik faoliyatga puxta tayyorlaydi.

Buyumlarni o'ziga qarab, naturadan tasvirlash mashqlari tasviriy san'atning asosi hisoblanib, u talabadan yuqorida bayon etilgan qonun –qoidalar asosida ish yuritishni talab qiladi. Shu bois, talaba o'qishning dastlabki bosqichidan-oq rasm chizishning asosiy qonunlarini to'la-to'kis egallashi hamda o'tmishdagi buyum rassomlarning ijodini va tasvir texnikasini chuqur o'rganishi lozim.

Tasviriy san'at borliqdagi voqea-hodisalar hamda buyumlarning nafaqat tashqi shaklini chizishni, balki ushba narsa va buyumlarning ichki mohiyatini chuqur tahlil etishni taqozo etadi. Bu borada buyuk Fransuz rassomi va me'mori Le Karbyuze shunday degan edi: «Tasvirlash jarayonida buyumlarning qanday dunyoga kelishini, ularning qanday rivojlanishini, o'sishini, gullab-yashnashini ko'rsan. Bu borliqni kuzatish, avvalo, buyumlarning «ichki» dunyosini, so'ngra

«tashqarisini» o`rganish natijasida amalga oshiriladi. Buyumning haqiqiy go`zalligini, avvalo, tashqarisiga e`tibor berib, so`ngra chizish davomida idrok etamiz. Tasvirlash-kuzatish, yaratitsh, ixtiro qilish demakdir».

Qalamtasvirdan yetuk malakaga erishish ko`p jihatdan narsani o`ziga qarab tasvirlashga bog`liq. Narsani o`ziga qarab tasvirlash mahorat maktabini o`tmishdan badiiy rivojlanish pillapoyalaridan yuqoriga chiqish mumkin emas. Bir necha yetuk shogirdlar tarbiyalagan rus rassomi va murabbiyi P.P.Chistyakov aytganidek, talaba, avvalo, chizilayotgan buyumni sinchiklab kuzatish zarur, so`ngra u naturani o`ziga «bo`ysundirishi» kerak. Rassom qanday yetuklikka erishmasin, u narsani o`ziga qarab tasvirlashdan voz kechmasligi lozim. Boshqacha qilib aytganda, rassomning xayoli uni o`rab turgan borliq bilan har doim borliq bo`lish lozim. Ijodkor-rassom biror-bir san`at asari ustida ijod qilishidan oldin, eng avvalo, kuzatib, eslab qolgan borliq obrazlarini xayolan tiklab, tahlil kiladi, so`ngra ularni juda ko`p marta amaliy mashqlar orqali olgan bilim va tajribalari asosida tasvirlaydi.

Narsaga qarab rasm chizishni ilmiy jihatdan tahlil etish natijasida uning bir necha mustaqil asosli fanlar bilan bevosita chambarchas bog`liqligini kuzatishimiz mumkin.

1. Perspektiva-buyumning fazoviy holatini tekislikda to`g`ri tasvirlash metodlarini ochib beruvchi fan.

2. Plastik anatomiya –inson va hayvonlar tanasining tuzilishi haqidagi fan.

3. Fizika-buyumlardan yorug` va soyalarning taqsimlanishi borasidagi fan.

Ushbu fanlarni har bir talaba umumta`lim maktablarida, so`ngra badiiy o`quv yurtida chuqur o`zlashtirgan bo`lishi hamda ularni tasviriy faoliyatda keng qo`llay olishi zarur.

Yuqorida bayon etilganidek, Uyg`onish davri rassomlari o`zlarining mashhur san`at asarlarida sanab o`tilgan fanlardan unumli foydalanganlar. Buyumlarni haqqoniy tasvirlashda ushbu aniq fanlarning ahamiyati nihoyatda

katta. Biron-bir mashhur san`at asari yo`qki, unda perspektiva qonuniyatlariga amal qilinmagan bo`lsin. Narsaning o`ziga qarab chizilgan suratni rassom qanday holatda (ro`paradan, yonidan, o`tirib yoki tik turib) bajarganini aniq aytib berish mumkin.

O`tmishda yashab ijod etgan buyuk rassomlar ham, hozirgi zamonaviy rassomlar ham perspektivani birinchi o`ringa qo`yadilar. Tasviriy san`at fazoviy tasavvurimiz perspektiva qonuniga to`la amal qilishini talab etadi.

Buyumning fazoviy holatini to`g`ri tasvirlash uchun, perspektiva qonunlariga rioya qilishimiz shart. Mashhur rassomning ijodi shundan dalolat beradiki, borliqni haqqoniy tasvirlash uchun tasviriy san`at qonun-qoidalariga rioya qilish g`oyatda muhim. Leonardo da Vinchi o`zining «Rangtasvir qonuniyatlari» nomli asarida shunday degan edi : «O`quvchi, avvalombor, perspektiva qonunlarini puxta bilishi lozim, so`ngra narsaning o`lchamlarini o`zlashtirishi kerak». Buyumlarning konstruktiv tuzilishini xamda ularning turli vaziyatdagi perspektiv qisqarishini to`g`ri tasvirlashi talabdan tinmay amaliy mashqlar bajarilishni talab etadi. Mashhur rassom murabbiylar, ijodiy faoliyat bilan bir qatorda, ko`plab maxsus metodik yo`llanmalar ishlab chiqqanlar. Jumladan, XIX asrning birinchi yarmida ijod etgan rus pedagoglaridan A.P.Sapojnikov buyumlarni tasvirlashda sinch (karkas) usulini joriy etdi. Gipsdan ishlangan geometrik shakllarni tasvirlashda u ma`lum shaklning yoniga shu shaklning simdan ishlangan nusxasini qo`yib, yosh rassomlarning chiziqli konstruktiv tuzilish, perspektiva qonun-qoidalarini osonlikcha o`rganishlariga yordam bergan sinch usuli yordamida tasvirlash turli geometrik hamda boshqa shakllarning (kub, tsilindr, konus, prizma) va buyum tekisligidagi tayanch nuqtalarini, pesrpektiva asoslarini xamda fazoviy holatlarini aniqlashda katta yordam beradi.

Geometrik shakllarning rasmini chizishda ularning buyum tekisligida joylashgan asoslarini chiziqli perspektiva qonuniga asosan bajarish mumkin.

Buning uchun chizuvchi buyumlarning perspektiv qisqarish qonunlari bilan bir qatorda ufq chizigini to`g`ri aniqlashi hamda uning yordamida turli shakllarining buyum tekisligida o`zaro joylashgan holatlarini haqqoniy tasvirlashi mumkin.

Ma`lumki, har bir buyum, u qanday shaklga ega bo`lishidan qat`iy nazar, perspektiva qonunlariga asosan qisqarishi mumkin. Lekin ko`p hollarda talabalar bu nazariyaga e`tibor bermaydilar. Kuzatishlar shuni ko`rsatadiki, talaba aylana shaklli buyumlarni tasvirlashda, uning fazoviy holatini to`g`ri topa olmaydi va buyumning perspektivaga asosan qisqarishida qo`pol xatoga yo`l qo`yadi.

Yoshlar u yoki bu buyumni tasvirlashdan, avval uning shakli qanday soddaki yoki murakkab tuzilgan bo`lishidan qat`iy nazar, buyumni sinchiklab kuzatishlari va uning ko`rinar-ko`rinmas tomonlarini ham tasavvur qilishlari shart. Ko`pincha usta rassom va mualliflar buyumni kuzatib o`rganish natijasida uning kompozitsion jihatdan to`g`ri joylashgan, chiziqli konstruktiv qurilgan holatini xayolan tasavvur etishni, so`ngra shu kuzatish orqali ishga kirishishini maslahat beradilar. Bunday usul chizuvchining fazoviy tasavvurini shakllantiribgina qolmay, buyum tasviri to`laqonli bo`lishiga ham katta yordam beradi.

Yoshlar tasviriy san`atning perspektiva qonunlarini o`qish davrining hamma bosqichlarida qo`llay bilishlari zarur. Ular bu qonunlarni turli oddiy buyumlarni chizganda ham, tabiatning eng murakkab inson qomatining turli holatlardagi ko`rinishini tasvirlashda ham qo`llaniladi.

Tasviriy san`at, xususan, narsaga qarab rasm chizishning qonun-qoidalari tabiat qonunlaridan kelib chiqadi. Tabiat qonunlari tasviriy san`atga ta`sir etib, uning rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Tasvirlash qonunlari talabaning qalamtasvir bilimini oshiradi va malakasini shakllantiradi, ijodiy qobiliyatini o`stiradi.

Narsaning o`ziga qarab chizish bo`yicha mashg`ulotlari talabalarga quyidagi eng asosiy qonunlarni o`rganishni maqsad qilib qo`yadi:

1. Tasviriy san`atda kompozitsiya asoslari

2. Shakllarning chiziqli konstruktiv tuzilishi
3. Buyumlarning o`zaro nisbatlari
4. Tasviriy san`atda perspektiva qonunlari
5. Shakllarda yorug` va soya qonuniyatlari
6. Tasvirni metodik izchillikda analiz va sintez kilib to`g`ri bajarish

Perspektiva qonuni-tasvirlanayotgan buyum, ushbu buyum qaysi tomonidan tasvirlanishidan qat`iy nazar (uzoqdan, yaqindan, yuqoridan, pastdan, to`g`ridan yoki chekkadan), chizuvchiga o`zgarib ko`rinadi. Masalan, kubni u yoki bu tomonga burib, uning tomonlari perspektiv o`zgarib ko`rinishini kuzatamiz. Temir yo`l rel`slari, simyog`ochlar va kenglikdagi boshqa shakllarning bizdan uzoqlashgan sari kichrayib, bir nuqtada tutashini ko`rishimiz mumkin. Hayotda o`zaro parallel bo`lgan rel`slar hech kachon to`qnashmasalarda, perspektiva qonuniga binoan, ular bizdan uzoqlashgan sari bu holatni kuzatishimiz mumkin. Bu perspektiva qonuniga asosan sodir bo`ladi.

Buyumlarni tekislikda haqqoniy tasvirlashda rassom perspektiva qonuniga bevosita murojaat qiladi. Bu holatni shunday ta`riflash mumkin. «Tabiatdagi barcha buyumlar qanday shakliga ega bo`lmasin, perspektiva qonun va qoidalariga bo`ysinadi». Perspektiva qonunlarini mukammal o`rganib, har qanday buyumning ko`rinar va ko`rinmas tomonlarini to`g`ri tasvirlash mumkin. Perspektiva qonunlarining asosiy xususiyati shundaki, buyumlar qanday kattalikda bo`lmasin, chizuvchidan uzoqlashgan sari va tekislikda qanday joylashganiga qarab perspektiv qisqaradi.

O`z navbatida, perspektiva qonuni haqqoniy tasvirlash «alifbo» laridan bo`lgan, «surat tekisligi», «buyum tekisligi», «ko`rish maydoni», «ko`rish nuqtasi», «ufq chizig`i» kabi qonuniyatlari bilan chambarchas bog`liqdir.

Surat tekisligi deb tasvirlanayotgan natyurmort, manzara, portret va hokazolar bilan rassom orasidagi bo`liqqa aytiladi. Fiziologik nuqtai nazardan qaraganda, yorug`lik chizilayotgan buyumga tushganda, rassomga buyumning u yoki bu qismi

ko`rinadi. Shundan keyingina rassom uni idrok etid, tasvirlashga o`tadi. Surat tekisligi rassom bilan natura o`rtasidagi vosita bo`lib xizmat qiladi.

Buyum tekisligi deb tasvirlanayotgan buyum joylashgan tekislikka aytiladi. Stol, pol, er va boshqa chizish uchun bajariladigan moslama buyum tekisligi vazifasini o`tashi mumkin.

Ko`rish maydoni va ko`rish burchagi chizuvchining ko`rish vaqtida tasvirlanayotgan buyumni qamrab olishidir. Tasvirlanayotgan ob`ekt uzoqlashib borgan sari ko`rish maydoni ham kengayib boradi, bu esa tasvirlanayotgan ob`ektning barcha qismlarini aniq ko`rish va tasvirlashga imkon yaratadi. Lekin, ob`ektdan juda katta masofada turib ham ushbu ob`ektning hamma qismlarini ko`z bilan ilg`ab olish mushkul. Tasvirlash jarayonida chamalash orqali masofani to`g`ri tanlay olish, ko`rish maydonini to`g`ri belgilash rassomdan mahorat talab etadi. Ko`p hollarda rassomlar tasvirlanayotgan predmet kattaligining uch hissa ko`paytirilganiga teng masofada turib rasm chizadilar. Masalan, inson qomatini to`laqonli tasvirlash uchun rassom naturadan taxminan besh-besh yarim metr masofada turishi kerak. Shundagina u tasvirni to`laqonli tasavvur etib, vazifani aniq bajarish mumkin.

Ufq chizig`i deb, ko`z balandligidan o`tadigan nurga aytiladi. Qog`ozni gorizontol holatda ko`zimiz darajasigacha ko`tarib, ufq chizig`ini aniqlashimiz mumkin.

1. Ufq chizig`idan yuqorida
2. Ufq chizig`idan pastda
3. Ko`zimiz nuri balandligida (ufq chizig`i balandligi darajasida)

Ufq chizig`i har doim ko`z nuri balandligidan o`tadi. Agar biz yuqoriga chiqsak u biz bilan ko`tariladi, pastga tushchak ufq chizig`i xam pastga tushadi.

Fazoviy perspektiva deb buyumlarning fazo (bo`shliq) ta`sirida o`zgarib (qiskarib) ko`rinishiga aytiladi. Fazo-tiniq muhitdir. Lekin uning tiniqligi tabiatning turli hodisalari ta`sirida o`zgarishi mumkin. Masalan : havo namligi,

atmosfera bosimining o`zgarishi, havodagi chang-to`zon ta`siri, havo bulutli ekanligi va boshqalarning (yaqqol yoki xira) ko`rinishlariga keskin ta`sir etadi.

Fazo perspektivasi ob`ektning kunning qaysi vaqtida tasvirlanayotganligi (ertalab, kunduzgi, kechqurun), yil fasllari (bahor, yoz, kuz) hamda atmosfera o`zgarishiga (quyoshli yoki bulutli) qarab ham o`zgaradi.

Fazo perspektivasining bir necha asosiy qoidalari mavjud bo`lib ular quyidagilardan iborat :

1. Rassomga yaqin bo`lgan buyumlar yaqqol, uzoqdagilari esa umumiy ko`rinadi. Tasvirda fazoni sezdirishi uchun yaqin masofada joylashgan buyumlarni yaqqol, uzoqdagilarni esa umumiy tarzda tasvirlash kerak.

2. Fazo bo`shlig`ida (kengligida) joylashgan buyumlar chizuvchidan qanchalik uzoqda joylashgan bo`lsa, shunchalik xira ko`rinadi. Tasvirda fazoviy perspektivani to`g`ri ko`rsatish uchun uzoqda joylashgan buyumlarni biroz yengil, oldingi qatordagi buyumlarni esa yaqqol tasvirlash kerak.

3. Yaqin masofada joylashgan buyumlar fazoda yaqqol hajmli bo`lib ko`rinadi, uzoqdagilari esa xiraroq ko`rinadi. Tasvirlashda ham ushbu tartibda rioya qilmoq zarur.

4. Chizuvchidan uzoqroq joylashgan buyumlar atmosfera bosimi ta`sirida siyohrang, havorang va och tusda ko`rinadi. Fazo perspektivasini yanada kuchliroq ko`rsatish uchun yaqin masofada yaqqol ko`rinib turgan buyumlarni aniq, uzoqdagilarni esa ochroq tusda tasvirlash darkor.

5. Oldingi qatorda joylashgan buyumlar haqiqiy o`z tusida (rangida), uzoqdagilari bir xil bo`lib ko`rinadi. Fazoviy perspektivaning bu qonuni rassomga yaqin masofada joylashgan buyumlarni yaqqol, uzoqdagilarni esa umumiy tarzda, xiraroq qilib tasvirlashni talab etadi.

Fazo perspektivasining ushbu qonun qoidalariga rioya qilishi talaba uchun juda muhim.

Yuqorida ko`rsatib o`tilgan qoidalarga talaba, qanday vazifa bajarishdan qat`iy nazar (portret, natyurmort, manzara va hokazo), amal qilishi shart.

Chiziqli konstruktiv tuzilishi-tasvirlanayotgan buyum soda yoki murakkab tuzilishga ega konstruktsiya so`zi-tuzilishi (qurilish) ma`nosini anglatib, rassom buyumni tasvirlashda bu qonunga amal qilishi lozim. Buyumni haqqoniy tasvirlash uchun uning chiziqli konstruktiv tuzilishiga e`tibor bergan maqsadga muvofiq. Har qanday buyumni tasvirlashda chiziqli konstruktiv usulni amalga qo`llagan holda qanday yaxlitlikda chizilishini ko`rish mumkin. Buyumning konstruktiv tuzilishini chizish uning asosiy qismlaridan yordamchi chiziqlar o`tkazish yo`li bilan amalga oshiriladi. Chiziqli konstruktiv tuzilishi orqali buyumni to`g`ri tasvirlash perspektiva qonun-qoidalariga to`liq amal qilishni taqozo etadi. Masalan, gips ko`zaning hajmini to`g`ri chizish jarayonida buyumning asosi, bo`gizi va yuqori qismi aylanalari, buyumning yuqoridagi holatiga asosan, perspektiv qisqarishini ko`ramiz. Demak, chiziqli konstruktiv buzilish buyumning cheka qirralarini kontur chiziqlar bilan engil tasvirlashni, ko`rinar-ko`rinmas tomonlarini asosli ko`rsatishni taqozo etadi.

Buyumlar hajmidan tashqari, balandligi va yoniga egadir. Bunda buyumlarning nisbati deyiladi. Bir necha buyumlardan tashkil topgan quyilmaning o`z nisbatlaridan tashqari, katta-kichikligiga qarab, o`zaro nisbatlari mavjud. Realistik tasvirlashda buyumlar nisbatini to`g`ri aniqlash katta ahamiyat kasb etadi. Buyum nisbatlarini to`g`ri aniqlash va tasvirlash quyidagi usulda amalga oshiriladi. Masalan, oddiy ko`zani olaylik. Uning balandligi yoniga nisbatan kattaligini aniqlash uchun qo`lga kalamni ushlab uzatgan holda rozetkaning kichik tomonining o`lchamini qalamda bosh barmoq bilan belgilab, rozetka balandligiga qo`yib taqqoslaymiz. So`ngra ushbu topilgan nisbatni qog`ozda belgilaymiz. Shu usulda bir guruh buyumlardan tashkil etilgan natyurmort yoki boshqalarning o`zaro nisbatalarni to`g`ri topish mumkin.

Hajm- har bir buyum o'z hajmiga ega. Uning hajmi qirralari, balandligi, bo'yi va yonining mavjudligi bilan belgilanadi. Agar buyumning hajmi to'g'ri to'rtburchaklardan iborat bo'lsa, uning hajmi ham tekis yuzadan iboratdir. Egri chiziqlardan tashkil topgan buyumlar (shar, konus, tsilindr va boshqalar) tekis yuzalarga nisbatan ancha hajmdor hisoblanadi. Bu shakllar kontur chiziqlar vositasida chiziladi. Buyum shaklini aks ettirishda kontur chizig'ining ahamiyati katta. Buyumning tuzilishi, nisbatlari va boshqalarni tasvirlashda rassom kontur chiziqlardan foydalanadi.

Buyum to'g'ri to'rtburchakdan iborat bo'lsa (kub, piramida, prizma va boshqalar), uning hajmi to'g'ri chiziqlar vositasida chiziladi. Uning konturlari egri chiziqlardan iborat bo'lsa, hajm ellips, aylana shakllar orqali tasvirlanadi. Buyumni hajmdor tarzda tasvirlash unga to'g'ri rang berish orqali bajariladi. Qirrali buyumlardan, masalan, kub hajmini to'g'ri tasvirlashda ko'pincha talabalar xatoga yo'l qo'yadilar. Talabalar kubning hajmini yorug`-soya yonida uni yanada yorqinroq aks ettirish uchun kubning qirralarini kontur chiziq bilan alohida bo'rttirib ko'rsatadilar. Bu mutlaqo noto'g'ri. Tabiatda qirrali buyumlar bir-biridan tus jihatidan och va to'qligi bilan farqlanadi. Kub yoki boshqa qirrali buyumlarning soya qismidagi qirradi yorug` qismidagi yuzadan tus jihatdan kuchliroq ekanligi bilan xarakterlidir.

Dumaloq shakldagi buyumlar hajmi ellips, aylana chiziqlar orqali chiziladi. Dumaloq hajmga ega buyumlarning ekvator qismi tus jihatdan kuchliroq tasvirlanadi.

Qirrali buyumlarda bo'lgani kabi, sharsimon buyumlarning chekkalari ham quyuk konturda chizilmaydi. Uning turgan holatiga ko'ra yorug` va orqa fondagi soyalar chegarasi bor xolos.

evropa realistik tasviriy san'atidan farqli ravishda, sharq tasviriy san'ati o'zining betakrorligi bilan ma'lum va mashhur. Chunonchi, ustoz Kamoliddin Bexzod tomonidan ishlangan Sulton Husayn Mirzo portretini olaylik. Ushbu

portretning hajmdorligi yorug`-soya qonuniyatlariga va perspektiva qoidalariga rioya qilinib yaratilmagan bo`lsa-da, lokal chiziq va konturlar orqali rassom asar qahramonini mohirona tasvirlangan.

Rasmi chizdiriladigan narsalarning shakl, tuzilishi, rangi kabi xarakterli xususiyatlarini ko`ra bili shva tushunish o`quvchilarda tevarak atrofdan estetik zavq olish, undan ta`sirlanish xususiyatlarini hosil qilishi bilan birga, ularning tafakkurini, ijodiy qobiliyatini o`stiradi, badiiy did tarbiyalaydi.

O`quvchilar qandaydir narsaning rasmini yoki biror manzaraning bir qismining rasmini chizar ekanlar, ularning o`ziga xos xususiyatlarini qalam orqali tasvirlaydilar.

Narsaning o`ziga qarab va xayoldan rasm chizish darslarida o`qituvchi o`quvchilarni rasm chizishning asoslari bilan yaqindan tanishtiradi. Realistik tasvirning elementar asoslarini o`rgatish asosan quyidagilar bilan bog`liqdir :

1. Narsalarning shakli, tuzilishi, o`ziga xos xususiyatlari, shuningdek, ularning bir-biriga o`xshash hamda bir-biridan farq qiluvchi tomonlarini ko`ra bilish va tasvirlay olish.

2. Narsalarni narsalar turini hisobga olgan holda perspektiv jihatdan to`g`ri tasvirlay olishi.

3. Yorug`lik manbaiga nisbatan narsalarning hajmini yorug`-soya yordamida tasvirlash.

4. Qalam bilan ishlash malakalarini hosil qilish va o`stirish.

Rasmi chizilayotgan narsalar analiz qilinayotganida ularning estetik jihatdan qanday ahamiyatga ega ekanligishini so`zlab berish lozim. Bunda o`qituvchining og`zaki nutqi katta ahamiyatga egadir.

Tashqi tuzilishi hamda hajmi jihatidan turlicha bo`lgan, ya`ni engil, yaltiroq, nozik yoki yumshoq vash u kabi narsalarning ham rasmini chizdirib borish o`quvchilarni yanayam qiziqtiradi. Tasvirni to`g`ri va ta`sirchan qilib ishlash, uning ayrim detallarini qiziqarli va nafis qilib berish, narsalarning fazoviy

joylashuvchi va yorug`-soyani aniq berish kabilar o`qituvchilar tomonidan o`quvchilarga har bir darsda muntazam ravishda tushuntirib borilishi lozim.

Narsaning o`ziga qarab rasm chizishda solishtirish metodi birdan bir to`g`ri metod hisoblanadi.

O`quvchilar biror narsani tasvirlar ekanlar, uni diqqat bilan kuzatib, ikkinchi bir narsa bilan solishtiradilar, ularning umumiy xususiyatlarini ko`radilar va bir-biridan farq qiluvchi tomonlari haqida fikr yuritadilar. Bunday solishtirish o`quvchiga chizilayotgan narsaning rasmini uning asliga o`xshatishda yordam beradi. O`quvchilarni narsaning o`zini diqqat bilan kuzatishga o`rgatish o`qitishning boshlang`ich bosqichida katta rol o`ynaydi. O`quvchilar narsaning o`ziga qarab, uning shakli, nisbatlari, tuzilishi va rangi haqida to`g`ri tushunchaga ega bo`ladilar.

Ayrim o`quvchilar darsda narsaning o`ziga qaramasdan rasmini chizib o`tiradilar. Bunday o`quvchilar ishlagan rasmni narsaning o`ziga qarab ish yuritgan bolalar chizgan rasmga solishtirilsa, ular o`rtasidagi farq darrov seziladi. Ya`ni narsaning o`ziga qaramay chizilgan rasmning sifati past bo`ladi. Shuning uchun narsaning o`ziga qarab rasm chizish darslarida o`quvchilarni narsaning o`zini analiz qilishga, chizilgan rasmni narsa bilan solishtirib turishga o`rgatish o`qitishni muvaffaqiyat bilan olib borishda hal qiluvchi bosqich hisoblanadi.

Agar o`qituvchi o`quvchilarni narsaga qarashni o`rgata olsa, o`qitishning bu turidagi asosiy masala hal bo`ldi deb hisoblash mumkin. Rasm chizdirish darslarida muhim masalalardan yana biri o`quvchilarni narsalarning shaklini ko`ra bilishga o`rgatishdir. O`qitishning dastlabki bosqichida bu masalalarni amalga oshirishda birmuncha qiyinchilik tug`iladi. Chunki bu bosqichda hajmli rasm chizishda tayyorlanish asosiy vazifa hisoblanadi.

O`quvchilarda kuzatuvchanlik o`stirilib, ko`rgan narsalarni analiz qila olish va ular haqida to`liq fikr yuritish yuzasidan ma`lum darajada hosil qilinganidan so`nggina hajmli rasm chizishni muvaffaqiyat bilan olib borish mumkin.

Shuningdek, o`quvchilar surat tekisligi, ko`rish nuri, ufq chizig`i, kesishish nuqtalari kabi tasvirlashning qoida va usullari hamda elementlar nazariyalari haqida chuqurroq fikr yuritadilar. Bular esa bajarilishi kerak bo`lgan ishlarning sifatini oshiradi, o`quvchilar dunyoqarashini kengaytiradi.

III BOB. NARSAGA QARAB RASM CHIZISH DARSLARI VA KERAKLI JIHOZLAR

Narsaga qarab rasm chizish uchun maxsus ish qurollari zarur. Barcha kurslarda talabning amaliy mashg'ulotlar bajarishda ular zaruriy ashyolar hisoblanadi. Ular quyidagilar : qog'oz, qattiqligi va yumshoqligi turlicha bo'lgan grafit qalamlar, guash va akvarel bo'yoqlar, yumshoq va yassi shakldagi mo'yqalam, o'chirg'ich, rasm taxtasi (planshet) va molbert.

Rasm chizishda qog'oz asosiy material hisoblanadi qog'oz oppoq, etarli darajada qalin va pishiq bo'lishi kerak. Ulardan eng yaxshisi «Vatman» deb nomlanuvchi qog'oz hisoblanadi. Akvarel bo'yog'ida ishlash uchun vatman qalin va yuzasi gadir-budir bo'lishi kerak, agar yupqa bo'lsa, u suvni tez shimib olib, yuvib ketadi, natijada bo'yoq yoyilib ketadi. Shu bilan birga «yarim vatman» qog'ozini ham qo'llash mumkin. Hozirgi kunda ko'plab qog'ozlar turlari mavjud. Qog'oz kashf etilgunga qadar odamlar yaproqlar, g'ishtlar va g'or devorlari, toshlarga rasm chizishgan.

Qadimga Misrda papirus yaproqlariga chizilgan. Qadimgi Pergam davlatida hayvon terisi qog'oz o'rnini bosgan. U «Pergament» deb atalgan. Lekin bunday «qog'oz» lar juda qimmat bo'lgan, chunki bitta kitob uchun kamida bir necha yuz mol terisi ishlatilgan.

Qog'oz II-asrda xitoyliklar tomonidan kashf etilgan. Bu qog'oz matoning mayda bo'laklaridan tayyorlangan. Hozirda esa qog'oz maxsus qog'oz fabrikalarida ishlab chiqariladi.

Oddiy qora qalam-hozirgi kunda oddiy qora qalamning juda ko'p turlari mavjud. O'rtacha yumshoq qalamlardan tortib juda qattiq qalam turlari bor. Bular «T», «2 T», «M», «2 M», «M», «2 M», «3 M» yoki «V», «T», «2 T», «M», «2 M», «NV», «V», «2 V» va boshqalar. Tarixga nazar tashlasak, tog'u-toshlarga turli tasvirlar chizganini ko'rish mumkin. Ular Biron-bir uchli qattiqroq narsa bilan g'or devorlarini tirnab, turli shakllar yasashgan.

Taraqqiyot tufayli rasm chizish asbob-uskunalari xam takomillashib bordi. Oddiy qora qalam xam shular jumlasidan. XVI asrda Angliyada grafit konidan topilgan tayoqchalarda rasm chizib ko`rishgan, shunda ular qog`oz yuzasida juda nafis va chiroyli chiziqlar tushira olish xususiyatiga ega ekanligi ma`lum bo`lgan. Oddiy qora qalam XVII asrning oxirida frantsuz olimi N.Kante tomonidan kashf etilgan.

«T» harfi bilan belgilangan qalamlar «tvoyordyy» - qattiq degan ma`noni anglatadi. Odatda gips buyumlarga rasm chizishda qattiq kalam qo`llaniladi. «M» belgisi «myagkiy»- yumshoq degan ma`noni bildiradi va undan ko`proq xomaki chizmalar yoki kompozitsiya eskizlari tayyorlashda foydalaniladi.

Ko`mir tayoqchalar-ko`mir tayoqchalari xomaki tasvir chizishda ko`proq ishlatiladi. Ko`mir tayoqchalarini uy sharoitida tayyorlasa bo`ladi. Ko`mir tayoqchalarning oddiy usuli quyidagicha : buning uchun tok yoki atirgunning qizarib, yaxshi pishgan novdasidan 5-10 tasi bo`yiga 10-12 santimetr (diametri 8-10 millimetr) qilib kesib olinadi. Biron mahsulotdan bo`shagan temir idish (banka) ni olib, ichini yaxshilab tozalab, quritib qo`yamiz.

Bu idish ichiga tok novdalarini tik holatda joylab, idishni qum bilan to`lg`azamiz. Og`zini loy bilan qalinroq qilib suvab, kichkina bir teshikcha qoldirilishi shart. Keyin tandir yoki o`choq oloviga qo`yib, qizdiramiz. Cho`qqa bo`y baravar ko`mib qo`ysak ham bo`ladi. Temir idish qizishi davomida qoldirilgan teshikchadan lovsimon ko`kish tutun chiqa boshlaydi. Ko`kish tutun tugashi bilan idishni olovdan olish kerak. Tayyorlangan ko`mir tayoqcha bilan qog`oz yuzasiga tasvir tushurish mumkin. Tasvir uchib ketmasligi uchun ozgina shakar eritilib, qog`ozdagi tasvir ustiga yengil purkaladi. Shu narsani unutmaslik kerakki, tok qalamchalari juda zich holda joylashishi kerak. Ularning hammasini bir-biriga zich qilib bog`lab qo`ysa ham bo`ladi. Ota-bobolarimiz bunday qalamchalardan kulolchilik ishlarida foydalanishgan. Zavodlarda esa 3000

issiqligidagi havosiz joyda 3 soatdan 5 soatgacha qizdirish orqali ko`mir kalamchalari tayyorlanadi.

Akvarel bo`yog`i suvda osongina eriydi. Uning tarkibida bo`yoq moddasi (o`simlik yoki minerallarning mayin qilib yanchilgan kukuni) va bog`lovchi moda- olcha yelimi, glitserin va ozroq asal bo`ladi. Akvarel bo`yog`i nafisligi va rangining tiniqligi, yorqinligi, uyg`un ko`rinishi bilan ajralib turadi, hatto, bir rangning ustidan ikkinchi surilganda ham avvalgi rang sezilib turadi va qo`shilishi natijasida yangi rang hosil bo`ladi.

Guash` bo`yoqlari ham suvda yaxshi eriydi, ammo u avkarel bo`yog`i kabi tiniq emas. Guash bo`yoqlari ishlatilganda (bir rangning ustidan boshqasi berilganda) avvalgi surtilgan rang butunlay ko`rinmaydi. Guash bo`yog`i tez quriydi, ammo quyoshda ko`proq tursa, uning rangi xiralashib qoladi.

Mo`yqalam-bo'yash uchun Mayin mo`ynali, yumaloq shakldagi mo`yqalamlardan foydalanish kerak. Ular yumaloq va yassi shaklda bo`lib, olmaxon, bo`rsiq, suvsar, quyon, tuya kabi hayvonlarning mo`ynalaridan tayyorlanadi. Sifatli mo`yqalam qo`llanganda qillari bir joyga yig`ilib konussimon ko`rishiga keladi.

Yumaloq mo`yqalam akvarel bo`yog`idan foydalanganda, yassi shakldagisi esa guash bilan ishlashda qo`llaniladi.

O`chirg`ich – rasm chizishda yordamchi va ortiqcha chiziq va shtrixlarni o`chirish uchun yumshoq oqich o`chirg`ichlar ishlatiladi. Yumshoq o`chirg`ichning sifati qog`oz yuzasidagi qalam izlarini shikast yetkazmay o`chirishi bilan aniqlanadi. Hozirgi kunda o`chirg`ichlarning turlari juda ko`p. Rasm chizganda ko`proq ko`kintir va oq tusdagilari ishlatiladi. Qizg`ish tusdagi o`chirg`ichlardan tasvir chizganda foydalanmaydi, chunki uning tarkibida «qumqog`oz» parchalari bo`lib, qog`ozni titib yuboradi. Keraksiz chiziq-larni o`chirishda o`chirgichni qattiq bosmaslikka, iloji boricha o`chirg`ichdan kamroq foydalanishga odatlanish lozim. Oq o`chirg`ich qattiqroq bo`lsa, uni yumshatish

uchun 2-3 kun mobaynida kerosin yoki benzinga solib qo'yish kerak. So'ng o'chirg'ich qaynagan issiq suvga solinsa, yumshoq holatga keladi. Ish jarayonida o'chirg'ichni doim qo'lda ushlab o'tirish yaramaydi, chunki qo'l terlashi oqibatida o'chirg'ich namlanadi va o'chirishda rasmga shikast etadi. Akvarel bo'yog'i bilan ishlash uchun rasm tayyorlashda iloji boricha o'chirg'ichdan kamroq foydalanish maqsadga muvofiq.

Planshet-talabalarga rasm chizish uchun maxsus planshet tayyorlashni va vatman qog'ozni ho'llab tortishni o'rgatish lozim. Tayyorlangan yarim vatman qog'oz o'lchami planshetga nisbatan ikki-uch sm. kattaroq bo'lib, chetlari buklanadi. Buklangan tomonlaridan tashqari, qog'ozning ichki qismi mo'yqalam yoki bir parcha paralon bilan ho'llab chikiladi. Qog'oz suvni o'ziga tortganidan so'ng u planshet ustiga qo'yiladi va quruq buklangan tomonlari PVA elimi bilan reykalariga yopishtiriladi hamda ko'rsatiladi.

Talaba molbert oldida qanday o'ritishi, hamda qalamni qanday ushlashi kerakligi juda muhim. Molbert oldida egilmasdan, bukchaymasdan, qalam ushlab turgan qo'lini bukmasdan, to'g'ri o'tirishi talab etiladi. Qog'oz yuzasida qo'lni bukmasdan buyumni tasvirlash ancha qulay. Iloji boricha xotirjam bo'lishi va harakatlari yengil bo'lishi, buyumdan ko'zni uzmasdan holda tasvirlash zarur.

Qalam, asosan, uch barmoq bilan ushlanadi. Uni ushlagan vaqtda erkin ishlashda qo'lni o'rgatish kerak. Qalamni uchi tasvir chizganda qalamni bo'shroq ushlash kerak. Qalam uchi tasvir chizishga tayyorlanganda, uning grafit qismini 5-6 mm, yog'och qismini esa 15-20 mm qilib yo'nish kerak, chunki bunday yo'nilgan qalam chiziqlarning aniq-ravshan ko'rinishiga yordam beradi. Bunday usul rasm chizish uchun eng maqbulidir.

Narsaning o'ziga qarab chizish mashg'ulotlari uchun maxsus o'quv xonasi (ustaxona) bo'lishi lozim. Bu ustaxona muayyan talabalarga javob berishi zarur. Model tusini yaxlit ko'rishga xalaqit bermasligi uchun, quyosh nuri o'quv xonasining o'ng yoki chap tomonidan tushishi maqsadga muvofiq.

Bunday maxsus mo`ljallangan o`quv xonasining devorini och kulrangga, shiftini oq ranga bo`yash tasviya etiladi. Bunday xonada naturaning soyasi yaxlit ko`rinadi. Mashg`ulotlarda natura yonidan yoki yuqoridan yoritilsa, buyumlarning shakli aniq ko`rinadi. Maxsus elektr yoritgichlar (sofitlar) turli tusdagi soya-yorug` berish imkoniyatini yaratadi.

O`qituvchi tasviriy san`at darslarida o`quvchilarga dars vaqtida o`zlarini qanday tutish, qanday qurollardan va qay tarzda munosabatda bo`lish qoidalariga ko`niktirib borishi zarur.

Narsaning o`ziga qarab rasm chizish darslarida chiziladigan narsani qo`yish quyidagi talablarga javob berish kerak :

1. Narsa hamma o`quvchilarga yaqqol ko`rinishi kerak
2. Narsaning hajmi va uning fazoviy holati aniq bilinib tursin.

Rasm chiziladigan narsaning yaxshi ko`rinishi rasm darsiningn muvaffaqiyatli o`qitish uchun asosiy zamin hisoblanadi. Agar rasmi chiziladigan narsa o`quvchilarga aniq ko`rinib turmasa, ulardan bu narsaning xarakterli xususiyatlarini to`g`ri tasvirlay bilishni talab qilib bo`lmaydi. O`quvchilarni chizilgan har bir rasm yuzasidan to`g`ri xulosalar chiqarishga o`rgatishda eng mayda sharoitlarni xisobga olish ham o`z o`rnida katta ahamiyatga ega. Darsda chizish uchun olma, nok, choynak va shu kabi unchalik katta bo`lmagan narsalarni faqat bir joyga emas, balki bir necha joyga qo`yish kerak. Bu narsalardan o`quvchilar o`zigacha bo`lgan oraliq ham 5-6 metrdan ortiq bo`lmasligi kerak. Agar o`qituvchi narsani hamma o`quvchilarga ko`rinsin degan maqsadda ufq chizig`idan yuqoriga, u holda jiddiy xatoga yo`l qo`yadi : birinchidan, orqaroqda o`tirgan o`quvchilar bilan chiziladigan narsa orasidagi masofa uzoqligicha qolaveradi, ikkinchidan esa, narsa qo`yilgan tirgakning oldingi qirrasi to`sib qoladi va ularga narsaning hamma qismini ko`rishda halaqit beradi. Chizilayotgan narsani yuqori qo`yishning ziyoni, ayniqsa bir tup narsalarning rasmini chizishda yaqqol ko`rinadi. Chunonchi, narsalar yuqori qo`yilganda ular turgan tekislik

o`quvchilarga ko`rinmaydi. Shu bilan birga, bu narsalarning qaysi biri yaqin, qaysi biri uzoq turganligi ham aniq bilinmaydi. Natijada narsalarning shakl, o`lchov nisbatlari va ularning fazoviy holatlarini to`g`ri tasvirlab bo`lmaydi. Shuning uchun narsani to`g`ri o`rnatishga, ya`ni uni ufq chizig`idan bir oz pastroq qo`yishga alohida e`tibor berish lozim. Bunda tsilindr, parallelepiped, kub shakliga ega bo`lgan narsalarning ustki qismi yaqqol ko`rinib turadi. Zotan, chizilayotgan narsalar (kitob, yashik, karovka kabilar) ning ustki qismlari yaqqol ko`rinib turgandagina o`quvchilar ularning xarakterli xususiyatlari hamda perspektiv qisqarishi to`g`ri tasvirlay oladilar.

Shuni xam esda tutish kerakki, o`quvchilar yakka narsa va narsalar turi turgan yuzani xam ko`rishlari shart, aks holda ular narsalarning fazoviy holati, o`lchovlari hamda shakl tuzilishini tasvirlay olmaydilar.

Ayniqsa, narsalar turgan yuzaning ko`rinishini akvarel bo`yoq bilan ishlash darsida katta ahamiyatga egadir.

Bundan tashkari, narsani biz xayotda qanday holda uchratsak, shunday holda o`quvchilar oldiga chizish uchun qo`yish kerak. Narsalarni qaysi joylarga qo`yish, ularning katta-kichikligi xamda sinfdagi o`quvchilarning soniga xam bog`liq bo`ladi.

Dars davomida o`qituvchi o`quvchilarga ularning chizgan rasmlarini kuzatib, kerakli maslahatlar berib boradi.

Narsalar turining rasmini chizishda ham yakka narsalar rasmini chizishdagidek, har bir yangi temani o`tishda darsning vazifa va maqsadlari murakkablashib boradi. Keyinchalik, bora-bora tekislikda narsalarning rasmini hajmli qilib chizish asosiy vazifa bo`lib keladi.

Yorug`-soyani tasvirlashni o`quvchilar ongiga to`la yetkazish oson emas. Buning uchun o`qituvchi darsga doimo yaxshi tayyorlanib kelashi va temani o`quvchilarga tushunarli bayon qilib berish lozim.

Hajmni tasvirlash vazifa qilib berilgan darslarda o`quvchilar chiziqalar yordamida narsalar shaklini chizib olganlaridan so`ng (yorug`-soyani berishga kelganda), rasmning soya qismini qoraytirib, uni o`zlaricha soya deb qabul qiladilar. O`quvchilarning bunday xatolarni o`qituvchi yorug`-soyani analiz qilib ko`rsatish vositasida bartaraf etadi va ularning ko`rish xamda tasvirlash olish qobiliyatini to`g`ri yo`lga solib beradi. Bu esa o`quvchilarning bilim hamda malakalarining oshib borishida muhim rol o`ynaydi.

Kuzatuvchanligi hamda rasm chizish malakalarning oshib borishi natijasida bolalar nrasalar formasini ko`rish va yorug`-soyani ongli ravishda tushungan holda tasvirlay olishni o`rganib oladilar.

Keyingi darslarda o`qituvchi soya berish texnikasini darsning asosiy vazifasi qilib qo`yadi. Bunda u soya berishning bir necha ULLARINI 43-BeT gapirib o`tadi va lozim bo`lsa, ko`rsatma quroldan foydalanadi yoki doskaga chizib ko`rsatadi.

Yorug`-soyani berishda, avvalo, narsaning yorug` joyini qoldirib, yarim-soya tasvirlanadi, so`ngra uning soya yerlari kerakligicha qoraytiriladi.

O`qituvchi mavjud metodlar orqali o`quvchilarga narsalarga noto`g`ri yorug`-soya bermaslikni, ya`ni rasmning bir tomonini yorug`, ikkinchi tomonini qora qilib tasvirlamaslikni eslatib o`tishi, konkret ko`rsatma berishi zarur.

Narsalar rasmini chizishda yorug`-soya berishni o`z oldiga maqsad qilib qo`yadigan har bir darsni ko`rsatmali asosda olib borish yaxshi natijalar beradi.

Qush, hayvon va odam rasmini chizish ancha murakkabdir. Shunga ko`rsa, o`quvchilar oldiga yanada avvalgiga qaraganda ancha qiyin vazifalar quyiladi. Bu vazifalar chiziladigan narsaning shakli, nisbatlari va xarakterli xususiyatlarini to`g`ri bera bilishdan iboratdir. Bunday darslarda rasm avvalo xomaki chizib olinadi. Bir darsda qush yoki hayvon tuxumlaridan uch-to`rt xomaki ishlar qilish mumkin. Xomaki ishlar bajarilganda o`quvchilar naturaning asosiy bo`laklarini va uning xarakterli xususiyatlarini tasvirlashga xarakat qiladilar.

Xomaki ishlar o`quvchilarning rasm chizishni tez o`rganib olishlari va kelgusida davomli rasm chizishlari uchun zamir yaratadi. Davomli rasm o`quvchilar tomonidan butun bir dars davomida chiziladi. Bunda o`qituvchi sinfda o`tilgan o`quvchilarning fikrini odam, qush yoki xayvonlarning ko`krak qafasi, boshi, tanasi va boshqa bo`laklarining kandy tasvirlanishiga jalb qilinadi. Shu bilan birga, ularning organlari bir-biri bilan bog`lanib ketganligi va bu organlarning o`zaro munosabatini o`quvchilarga tushuntiradi.

Odam rasmini chiza bilish boshlang`ich hamda yuqori kurs o`quvchilari uchun zarurdir. Chunki bu kurslarda tematik rasmlar chizdiriladi. Tematik rasmlarda esa odamlar tasvirlanishi mumkin.

Odam rasmini chizish, uning skeletini o`rganishdan boshlanadi. Skeletni ko`rsatish va analiz qilish har bir bo`lakning kishi organizmida tutgan o`rni va ahamiyati, vazifasi bilan bog`lab olib boriladi.

Kishi tanasining o`lchov nisbatlari xaqida fikr yuritilishi o`quvchilarning naturadagi xarakterli xususiyatlarni to`g`ri tasvirlashlari uchun zamin hisoblanadi. Odam rasmini chizishda ish davomida uning o`lchov nisbatlari naturaga qarash bilan qayta-qayta tekshirilib, to`g`rilab turiladi, chunki oyoq o`lchovining uzun yoki kalta olinishiga qarab, kishi gavdasi katta yoki kichik bo`lib ko`rinadi.

Kishining rasmda qo`li uzun yoki kalta bo`lib qolmasligi uchun, qo`lning uzunligi, uni uzunasiga pastga tushirib yuborganda soning yarmigacha kelishini unutmaslik lozim. Kalla o`lchovining katta yoki kichik olinishi kishi tanasi o`lchovi nisbatlarining buzilishiga olib keladi.

Kallaning o`lchovi kichik olinsa, kishining bo`yi uzayiyu ketgandek tuyuladi va aksincha katta olinsa, pakanadek tuyuladi.

O`qituvchi skelet haqida tushuncha berib bo`lgach, o`quvchilardan birini yoniga chaqirib taburetka yoki stolga chiqarib qo`yadi. Surati chiziladigan o`quvchi hammaga aniq ko`rinib tursin uchun, u turgan taburetkani xonaning o`rtasiga qo`yishi maqsadga muvofiqdir. Chunki, natura katta bo`lganligi uchun

yaqindan to`liq ko`rinmaydi. O`quvchilar quloq, burun, ko`z va boshqa tomonlarini chizishga ko`proq ahamiyat beradilar. Bu esa ularni asosiy vazifadan chetlashtiradi. Buning oldini olish uchun, o`qituvchi o`z vaqtida o`quvchilarga odam rasmini xomaki chizish vazifasini tushuntiradi. Bunda u, xomaki rasmning vazifasi uning mayda bo`laklarini chizish bo`lmasdan, balki 10-15 minut ichida kishi tanasi shaklining asosiy bo`laklari (bosh, tana, qo`l, oyoq) o`lchov nisbatlarini to`g`ri topishdan iborat ekanini tushuntiradi.

Tushuntirish jarayonida boshqa guruh yoki kurs o`quvchilarining ishlarini hamda usta rassomlarning xomaki ishlarini namuna tariqasida ko`rsatish mumkin.

Biroq usta rassomlar tomonidan bajarilgan xomaki ishlarning maktabda talab etiladigan xomaki ishlardan farq qilishni xam aytib o`tish kerak. Boshqa kurs o`quvchilarining ishlari ko`rsatilganda, o`qituvchi o`sha ishlarning o`lchov nisbatlari va naturaning asosiy shakli asosan to`g`ri bajarilganligini, kishining yuz tuzilishi, barmoqlari va boshqa maydi bo`laklarini chizish talab qilinmaganligi uchun, ularni o`quvchilar tasvirlamaganligini aytadi.

Nihoyat, o`qituvchi tushuntirishni chiziladigan o`quvchining o`zida olib boradi. So`ngra o`quvchilar yordamida kishi tanasining tuzilishi, kalla, tana, oyoq va o`lchov nisbatalarini analiz qiladi. Bu o`rinda o`qituvchi kishi tanasining bosh bilan bo`yin orqali tutashganligi (ko`pincha o`quvchilar kishi tanasini bo`yinsiz chizib qo`yishadi) va tananing eng keng va eng tor eri qaerdaligi, elkaning yo`nalishi hamda eni haqida alohida ma`lumot berib o`tishi mumkin.

XULOSA

Har bir inson juda yoshligidanoq ishtiyoq bilan rasm chizadi. O`qituvchining vazifasi o`quvchilardagi ana shu aktivlikni saqlab qolish va o`stirishdir. O`qituvchi plan asosida ishlash, o`ylab ish tutish, mantiqiy fikrlash, kuzatilgan naturaga asoslanib xulosalar chiqarish, boshlangan ishni oxiriga yetkazish va shu kabilarga o`quvchilarga o`rgatishi lozim.

Dars jarayonida o`quvchilarning estetik his-tuyg`ularini va badiiy didini o`stirish o`qituvchining asosiy vazifalaridan biridir. Buning uchun o`qituvchi o`z vazifasini aniq tushunishi lozim. Rasm darsi nima uchun va qanday maqsad bilan o`tkaziladi, o`quvchilar qanday bilim va malakalar oladilar-o`qituvchi ana shularni o`quvchilar ongiga yetkazishi lozim. Shuningdek, o`qitishning eng muhim shartlaridan biri metodik va didaktik printsiplarga to`g`ri va nuqsonsiz amal qilishdan iboratdir :

1. Muntazamlik va izchillik
2. Ko`rgazmalilik
3. Tushunib va aktiv holda o`zlashtirish
4. O`quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish
5. Har bir o`quvchiga alohida munosabatda bo`lish, ana shunday printsiplardir.

Oddiy murakkabga, umumiylikdan xususiya o`tish printsiptiga amal qilish atrofdagi narsalarni ko`rish va to`g`ri tasvirlashga imkon yaratadi. Narsalarning shakli, xarakterli xususiyatlari va bir-biridan farqini o`quvchilarning ongli ravishda tushunishlariga erishmoq kerak.

O`tilgan temalarni mustahkamlash maqsadida darsdan tashqari ishlar ham olib boriladi. Bularga daraxtlarni, biologiya kabinetidagi hayvon va qushlar rasmini xomaki chizish va uyga berilgan vazifalarni bajarish orqali erishiladi. Uyga berilgan vazifalarni o`z vaqtida nazorat qilib turish katta ta`lim va tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Shuning uchun uni qanday usul bilan bo`lmasin

tekshirib turmoq lozim. O`quvchi o`z navbatida o`z ishining xatosini o`qituvchi tomonidan og`zaki yoki yozma ravishda tushunish olishi talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. O‘zbekiston badiiy akademiyasi faoliyatini rivojlantirish va yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida.
2. I.A.Karimov. «Yuqori ma`naviyat-engilmas kuch». Toshkent. 2008
3. Boymetov B. Qalamtasvir asoslari. T., 1999
4. Boymetov B. Qalamtasvir. T., «Musiqqa», 2006
5. Boymetov B. Qalamtasvir o‘itishning ilmiy asoslari. Metodik tavsiyalar. T., 1995
6. Boymetov B. Qalamtasvir. Pedagogika institutlari va universitetlari uchun qo‘llanma. T., 2000
7. Boymetov B, Tolipov M. Maktabgacha tasviriy san`at to`garagi. T., «Fan», 1995
8. Rostovtsev N. Akademicheskii risunok. M., «Prosveteniye», 1984
9. Tojiev B. Qalamtasvir asoslarini o`rganish. T., 1994
10. Hasanov R. Narsaning o`ziga qarab rasm chizish. T., «O`qituvchi», 1968
11. Boymetov B. Qalamtasvir asoslari. O`quv qo`llanma. T., 1999
12. Boymetov B, Abdirasilov S. Chizmatasvir. O`rta maxsus kasb-hunar kolledjleri uchun o`quv qo`llanma. T., 2004
13. Boymetov B. Qalamtasvir. Darslik 1-qism. T., 2006
14. Nabiev M.N., Azimova B.Z. Rasm chizishni o`rgatish metodikasi. T., 1976
15. Oripov B. Tasviriy san`at darslarini samaradorligini oshirish omillari. T., 1978
16. Tojiev V. Qalamtasvir asoslarini o`rganish. T. 1994
17. Tojiev B. Qalamda manzara chizish (oqiv qollanba). T., 2000
18. Tolipov N., Abdirasilov S., Oripova N. Rangtasvir (1-qism). T., 2002.
19. Tolipov, N. Abdirasilov S. Oripova N. Rangtasvir (2-qism). 2003
20. Tolipov, N. Abdirasilov S. Oripova N. Rangtasvir. 2005
21. Tolipov, N. Abdirasilov S. Oripova N. Rangtasvir . 2006
22. Hasanov R. Narsaning o`ziga qarab rasm chizish. T., 1963
23. Egamov X. Bo`yoqlar bilan ishlash. T., 1987
24. Hasanov R. Maktabda tasviriy san`at o`qitish metodikasi. T., Fan, 2004

25. Egamov N. Rangtasvir. T., 2005

26. Beda G.V. Живопись. М., 1985

27. www.pedagog.uz

28. www.nbgf.intal.uz

RANGLI ILLYUSTRATSIYALAR



